

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

Chizmachilik va tasviriy san`at kafedrası

Xudoyberdiyev Shuxratning.

**“Umumta’lim maktablarida tasviriy san’at mashg’ulotlarida
zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash.”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

M Zokirova

Andijon-2014 y

Reja

Kirish.

1-bob. O'qitishning zamonaviy texnologiyalarini o'rganish .

1.1. O'qitishga an'anaviy yondashishning afzalliklari va kamchiliklari.

1.2. O'zbekistonda yangi pedagogik texnologiya kontseptsiyasini rivojlantirish istiqbollari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

2-bob. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atdan o'quv jarayonini texnologiyalashtirish.

2.1. Umumiy o'rta ta'lim tasviriy san'at mashg'ulotlarini muammoli vaziyatlar hosil qilib o'qitish.

2.2. Umumiy o'rta ta'lim tasviriy san'at darslarida tabaqalashtirib o'qitish yo'llari

Xulosa

Ilovalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.“Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ko’zda tutilgan bosh maqsadlardan biri mustaqil va ijodiy fikrlovchi, jahon andozalariga mos keladigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir.

Respublikamiz hozirgi davrda milliy taraqqiyotning eng ma’suliyatli bosqichi – ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning keskin burilish davrini boshidan kechirmoqda. XXI asr ilmiy – texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun halqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz dunyoqarashini o’zgartirish, ularning bilim va ma’naviyatlarini jaxon andozalari darajasiga ko’tarish zarur.

. Ob’ekti va predmeti.

Umumta’lim maktablari va fani.

Bo’lajak umumiy o’rta va kasb – hunar ta’limi kollejlarning o’qituvchilari nafaqat fan asoslarini, balki ular eng zamonaviy ilg’or pedagogik texnologiyalarni egallagan bo’lishlari, o’zlarining pedagogik maxoratlarini to’xtovsiz oshirib borishlari talab etiladi. Bo’lg’usi o’qituvchilar tasviriy san’at o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiya kursi tugaganidan so’ng quyidagi bilimlarni egallagan bo’lishlari lozim:

- tasviriy san’atdan maxsus fanlarni o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim taraqqiyotini xarakatlanuvchi kuchi ekanligini ;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tarixiy taraqqiyot bosqichlarini;
- xorijiy mamlakatlarda qo’llanib kelayotgan interfaol metodlarni;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tasviriy san’at mashg’ulotlarida qo’llanish imkoniyatlarini;
- tasviriy san’at mashg’ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo’llash yo’llari va uning qonuniyatlarini;
- zamonaviy pedagogik texnologiya loyixasi va uning tarkibiy tuzilishini;
- o’quvchilarni bilim, malaka va ko’nikmalari, ijodiy ish natijalarini nazorat qilish va baholash;

Respublikamiz kelajagi, ravnaqi, ta’lim-tarbiya sohasidagi ishlarning qay tarzda olib borilishiga bog’liq.

Ta’lim–tarbiya sohasini takomillashtirish bu borada yangi, zamonaviy, ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etishning tizimli asoslarini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan xisoblanadi.

O’zbekiston respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta’kidlaganidek “... zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni o’z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta’minlashni

aloxida nazorat ostiga olish kerak”. SHu nuqtai nazardan kelib chiqib bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini yaratish va uni ma’lum bir tizimga solish davr talabidir

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:

Amaliy san’at turlari va naqqoshlik san’ati haqida o’quvchilarga Ta’lim–tarbiya sohasini takomillashtirish bu borada yangi, zamonaviy, ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etishning tizimli asoslarini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning ob’yekti:

- Ta’lim muassasalari

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:

- Tasvitiy san’at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash o’rganildi.
- Tasviriyl san’at darslarida pedagogik texnologiyalarni qo’llanishi amaliy ahamiyati o’rganib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi:

- kirish qismi, ikkitata bob, xulosa qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalardan iborat bo’lib, jami 69 sahifani tashkil etadi

1-bob. O’qitishning zamonaviy texnologiyalarini o’rganish .

Hozirgi kunda sanoati va intellektual salohiyati rivojlangan mamlakatlar o’rtasidagi iqtisodiy musobaqa fan, texnika va texnologiyalar sohasiga, natijada ta’lim sohasidagi musobaqaga aylanib bormokda.

O’zbekiston ta’lim tizimini isloh qilishning dasturiy hujjatlarida - respublikada ta’lim raqobatbardosh kadrlarni ilgarilab tayyorlashni ta’minlash darajasiga etishi kerak - degan maqsad qo’yilgan. YOshlarning yangi avlodi istiqbol masalalarni qo’yish va echish, fikr yuritishning yuksak madaniyati, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotda mustaqil yo’l topa olish qobiliyatiga ega bo’lishi kerak.

SHunday qilib, ta’lim tizimining yangilanishi va rivojlanishi jahon hamjamiyatiga integratsiya kuchayayotgan sharoitda jamiyat va mamlakatning rivojlanishi o’zaro bog’langan va o’zaro asoslangan yagona jarayonning elementlaridir.

Ish nuqtai nazardan O’zbekistonda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta’lim tizimining islohoti ta’limda qotib qolgan ko’p qoidalarining o’zgartirilishini, respublikadagi ijtimoiy-

iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan, ilmiy asoslangan yangi, yaxlit tizimining shakllanishini taqozo etadi.

2.O'tkazilayotgan islohotlar o'tmishning ijobiy g'oyalaridan voz kechish degani emas. Ulardan foydalanish, erishilgan ilmiy potentsialga tayanish, boy milliy va umumbashariy intellektual va ma'naviy merosni amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlash kerak.

O'zbekiston qadimiy tarixga ega, shu jumladan ta'lim sohasida, ham (Axliddinov R.SH., Oldroyd D., Xodjaev A., Nasirova F., Kamilova M. Upravlenie obrazovaniem v Uzbekistane: problemi, poiski, resheniya. T., 1999). Ajdodlarimiz bizga inson mehnatiniig minglab ajoyib namunalari, san'at, fan, adabiyotga doir asarlarni qoldirganlar. O'sha davrda bunyod qilingan me'morchilikning ulkan yodgorliklari maqbaralar, rasadxonalar, minoralar va boshqalar asrlar davomida diqqatga sazovor bo'lgan va shunday bo'lib qoladi.

Bularning hammasi minglab oddiy insonlar mehnati bilan yaratilgan. Bu ishlar qanday olib borilganligi haqida qadimiy Afrosiyob qazilmalari, Samarqand, Buxoro, ko'xna Urganch obidalarining saqlanib qolgan devorlarida o'yilgan yozuvlar, rasmlar hikoya qiladi.

Bunday ishlarni bajarish chuqur bilimlar, mehnatni aniq tashkil qilish, ish sifatini nazorat qilish, mahalliy sharoitlarni hisobga olish, atrofdagilarga ta'sir etishni bilish, ya'ni hozir boshqaruv deb ataladigan narsani talab qilgan.

Atoqli ajdodlarimiz bizga boshqarish masalalariga katta e'tibor berilgan yozma yodgorliklarni qoldirganlari ham, yuzlab yillar ilgari Alisher Navoiy yozgan o'gitlarida, Abu Nasr Forobiy, Al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ahmad al Farg'oniy va ko'pgina boshqa allomalarning asarlarida zamonaviy boshliqlar uchun o'z ahamiyatini yo'qotmagan fikrlar bayon qilingan. Ularda boshliqlar uchun boshqaruv masalalariga ob'ektiv yondashish, aniq, rejalashtirish, hokimning qanday harakat qilishi, qo'l ostidagilarga qanday talablar qo'yilishi haqida tavsiyalar keltirilgan.

3.Ajdodlarimiz azaldan yosh avlod ta'lim-tarbiyasini o'zlarining eng muhim vazifalari sifatida ko'rganlar. Asrlar mobaynida insonni erta rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning asosiy tamoyillarini hisobga olgan halq pedagogikasi rivojlanib va takomillashib kelgan.

Yoshlarni insonparvarlik munosabatlar va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash halq pedagogikasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan va xushmuomalalik, odoblilikni o'z ichiga qamrab olgan.

O'zbekistonda kattalar, rahbarlarni hurmat, izzat qilish boshqarish masalalarida o'z aksiii topadi. Lekin boshqaruvga emas, balki ular ta'limni boshqarishda kerak bo'ladigan katta hayotiy tajribaga egaliklariga asoslangan.

O'zbekistonda ta'lim muassasalariga an'analar kuchli ta'sir qiladi. Bu erda o'qituvchilarni chuqur hurmat qilish va kitobdan o'qitish usullari mavjud. Ko'pincha o'quvchi o'qish paytida o'qituvchining donoligi va bilimdonligiga tan berib, o'zi bu vaziyatda passiv holatda bo'ladi.

Hurmat va itoat qilishning bu turi oilalarda rivojlangan. Odamlar zimmasiga javobgarlikni olish va o'zini-o'zi boshqarish o'rniga ko'rsatmalarni bajarishga intiladilar.

4.Kadrlar tayyorlash milliy dasturining eng ustivor yo'nalishi - ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda qatnasha oladigan, ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir eta oladigan, mamlakat, oila taqdiriga javobgar bo'la oladigan mustaqil va erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirishdir.

Uning amalga oshirilishi o'zining mohiyati va mazmuni jihatidan jamiyatning ma'naviy hayotining muhim mezonini, kelajakka intilish, insonlarda yangi dunyoqarashni shakllantirishga, ijtimoiy fikrni rivojlantirish, tubdan isloh qilish dasturi bo'lgan milliy istiqloq g'oyasi bilan sug'orilgan bo'lishi kerak.

Gap ta'limga bilimdon va harakatchan, tez o'zgarayotgan ijtimoiy, informatsion va texnologik sharoitlarda kasbiy, ijtimoiy va psixologik o'rnini topa oladigan insonni tarbiyalaydigan tizim sifatida boshqacha kuz bilan qarash haqida ketmoqda.

Bu holda umumjahon jarayonidan chetda qolish - halq, va mamlakat, jamiyat va alohida olingan shaxsning rivojlanishi potentsialini cheklab qo'yishdir.

Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish masalalarini echishda oliy ta'limning ahamiyati ayniqsa muhim.

"XXI asr uchun oliy ta'lim haqidagi jahon deklaratsiyasi: yondashish va amaliy choralar" (YUNESKO, Parij, 1998) da quyidagilar ta'kidlangan:

... oliy ta'limni butun ta'lim tizimining katalizatori sifatida ko'rish va undan foydalanish... oliy ta'lim butun ta'lim tizimining rivojiga yanada faol, shu jumladan, pedagogik ta'limni takomillashtirish yo'li bilan ulush qo'shishi - o'z faoliyatiga tanqidiy yondashuvchi yuqori malakali va o'qimishli insonlar ommasini yaratuvchi adekvat oliy ta'limga va ilmiy tadqiqot muassasalarsiz birorta mamlakat real barqaror rivojlanishni ta'minlay olmaydi, rivojlanayotgan mamlakatlar esa o'zlari va rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi masofani qisqartira olmaydilar. Bilimlardan hamkorlikda foydalanish, halqaro hamkorlik va yangi texnologiyalar bu uzilishni kamaytirishga yangi imkonlar yaratadi... Oliy ta'lim o'quvchilarning shunday ta'limini ta'minlashi kerakki, ular tanqidiy fikrlash, ijtimoiy muammolarni taxlil qilish, jamiyat oldida to'rgan muammolar echimini topish va ulardan foydalanish hamda o'z zimmasiga ijtimoiy ma'suliyatni olishga qodir bo'lishi, yangi pedagogik va didaktik yondashuvlarga, ularning rivojlanishiga yo'l ochish kerak. Ular ko'nikmalarga ega bo'lishga ko'mak berishi,

bilimdonlik va kommunikatsiya, ijodiy-tanqidiy taxlil, mustaqil fikrlash va ijod hamda an'anaviy yoki mahalliy ko'nikma va bilimlar zamonaviy fan va texnika birikuviga asoslangan ko'p madaniyatli kontekstda birgalikdagi mehnat bilan bog'liq qobiliyatlarni rivojlantirishi zarur."

SHubxasiz, kadrlarning yangi avlodini tayyorlash masalalari-da oliy va o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va maktab o'qituvchilari asosiy rolni o'ynaydi. Har bir o'quvchi, o'quvchi, o'sib kelayotgan avlod taqdiri uchun katta ma'suliyat pedagoglar zimmasidadir. Pedagoglar mehnatining natijalari bugun qanday bo'lsa, jamiyatimiz ertaga shunday bo'ladi.

5.Zamonaviy maorifni isloh qilishning taniqli nazariyachilaridan biri Maykl Fullan o'zining "Sili peremen" (1993) kitobida — «...o'qituvchilarni tayyorlash - ta'lim islohotining eng zaif joyi, shu bilan birga rivojlanishning eng katta potentsialiga ega bo'lgan bo'g'inidir - deb ta'kidlaydi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qituvchilarni tayyorlash muammosi qanday hal qilinishi maorifga va oqibatda, XXI asr jamiyatiga muhim ta'sir qilishi mumkin, ya'ni uning muvaffaqiyatli rivojlanishiga ko'maklashadi yoki uni sezilarli darajada sekinlashtiradi.

Ma'lumki, o'quv muassasasi uning pedagogik tarkibidan yaxshiroq, bo'la olmaydi. Buni YUNESKO ning ta'lim sohasidagi mutaxassisi Piter Mortimer aytganlari tasdiqlaydi: "Albatta hukumatlar akademik kamolotga tezroq erishish mumkin bo'ladigan sharoitlarni yaratib berishi mumkin. Ular o'z burchiga sodiq, ma'mur va pedagoglarning unumli va ijodiy ishlashiga imkon berishlari mumkin. Ular o'quv muassasalar o'z jamiyatlari extiyojlariga javob bermagan hollarda zarur bo'lgan chora-tadbirlar qurishlari mumkin, lekin ular o'zlaricha maktab ichida o'qitish sifatini yaxshilay olmaydilar.

Ta'lim sifatining kaliti alohida olingan o'quv muassasasi va ta'lim berish ma'suliyatiga ega pedagogdir".

O'qitishning istiqboli pedagogik g'oya va metodlari ham milliy, ham umumbashariy qadriyatlarni, shu jumladan ozodlik va inson huquqlarini anglab olgan erkin shaxs yaratishi mumkin.

SHuning uchun yigirmanchi asrda pedagogika fanining rivojlangan markazlari sifatida inson tafakkurining ta'lim sohasidagi yutuqlari jamlangan demokratik mamlakatlar bo'lib qoldi. Hozir biz ularni o'zlashtirishimiz va keyin ular bilan baravar odimlashimiz kerak.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturining «Kamchiliklar va muammolar» qismida (1997 y. holati bo'yicha) quyidagilar ta'kidlangan: "O'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar etishmasligi sezilmoqda". ... "Maktablarda va boshqa o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining o'zidagi va o'qitish uslubiyatidagi har xil

kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan nodemokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keldiki o'quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qolayapti, oqilona hayotiy echimlar qabul qilish uchun etarli tayyorgarlik yo'q;..".

Bu kamchiliklar inobatga olinib KTMD ni amalga oshirishning birinchi bosqichidayok, "Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish" masalasi qo'yilgan.

O'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari bo'yicha etarli adabiyotlar yo'qligini hisobga olib ushbu kursga yangi usullar tavsiflari va ularni qo'llash bo'yicha tavsiyalar bilan bir qatorda ularning qisqacha nazariy asosnomalari xam kiritilgan.

Bilimlar yiriklashtirilgan didaktik birliklar printsipida bayon qilingan. Bunday tuzilma o'rganilayotgan material mantiqi va asosiy g'oyalarni o'zlashtirishga yordam beradi, sababiy-oqibatli fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

IB	-Informasion blok;
KB	-Kengaytiruvchi blok;
MB	-Muammoli blok;
AB	-Akademik blok;
VB	-Vaziyat bloki;
O'NB	-O'z-o'zini nazorat qilish bloki;

TB - To'g'rilovchi blok; Bu blokda asosiy ma'lumotlar keltirilgan. Ularning ixchamligiga bilimlarni bir tizimga solish, o'zak g'oyalarni ajratish, jadvallar, mantiqiy va grafik sxemalar, aniq va qisqacha ta'riflash yo'llari orqali erishiladi.

IB tarkibiga tabiiy ravishda ayrim holatlarni to'ldiruvchi va aniqlik kirituvchi, tushunish va o'zlashtirish uchun qiyin bo'lgan ma'lumotlarni tushuntiradigan kengaytiruvchi blok (KB) lar qo'llanilib ketadi.

Kengaytiruvchi bloklar nazariy informatsiyani "jonlantiradi", yorqin, esda qoladigan fakt va misollarga ega. KB larni o'rganish shart emas, lekin ularni bilish juda foydali.

Muammoviy blok (MB) lar fikrni uyg'otish, jamlangan zaruriy bilimlar asosida o'z xulosalarini chiqarishga turtki bo'ladi.

Bu erda odatda zamonning eng dolzarb, munozarali masalalari muxokama qilinadi. Izlang, fikrlang, ijod qiling!

Akademik blok (AB) lar nazariy qoidalar ilgari surilgan, chuqurlashtirilgan darajada bayon qilish uchun mo'ljallangan. Ma'lumki, mustaqil ijodiy fikrlash o'qish mobaynida paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni engish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Akademik bloklar tarkibiga o'qitishning ayrim yangi usullarining psixologik-pedagogik asosnomalari kiritilgan.

Vaziyat blok (VB) lari teskari bog'lanish uchun material beradi: hayot-nazariya, nazariya-hayot.

O'z-o'zini nazorat qilish va to'g'rilash blok (UNB; TB) lari asosiy g'oyalarni to'g'ri tushunilganligini nazorat qilish, ularni o'zlashtirishni mustaxkamligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Ularda o'z-o'zini nazorat qilish uchun topshiriqlarning turli shakllari qo'llanadi va to'g'ri javoblar keltiriladi.

1.1. O'qitishga an'anaviy yondashishning afzalliklari va kamchiliklari.

1.1917 yildan keyin halq ta'limining butun tizimi tubdan isloh qilingan edi. Maktab o'quvchilarning millati, jinsi, ijtimoiy va moddiy holatidan qat'iy nazar tekin, ommabop bo'lib qoldi. SHuningdek, maktab dunyoviy, ya'ni dindan mustaqil deb e'lon qilingan edi.

. Mamlakatdagi ta'lim darajasi va ko'lami 1941-1945 yillardagi urushda halq g'alabasiniig muhim sabablaridan biri bo'ldi. Sovet ta'lim tizimining katta muvaffaqiyati atom va raketa-kosmik sohalaridagi yutuqlari bo'ldi. Erning birinchi sun'iy yo'ldoshi uchirilgandan keyin AQSH kongressi - "Amerikaning milliy sharmandaligida kim aybdor? " degan savolga javob berish topshirig'i bilan maxsus komissiya tashkil qilgan. Amerikaliklar birinchi sun'iy

yo'ldosh uchirilishini o'zlari uchun shunday belgilashdi. Ular sovet o'rta va oliy maktabini bolsheviklarning "maxfiy quroli" deb atab, o'z maktablarini isloh qilishga kirishdilar.

Ayrim davrlarda bu diktatni "shunday kaltafaxm shaxslar amalga oshirganlarki, butun fanlar va ilmiy yo'nalishlar, shu jumladan pedagogik sohalarda ham taqiqlangan edi.

Keyinchalik ta'lim sohasidagi peshqadamlik, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda pedagogikadagi yangi oliy - ta'lim texnologiyalari va o'qitishning interaktiv usullari ishlab chiqilgandai keyin boy berib qo'yilgan edi.

A. Lobok (1999) o'z paytida ta'lim mazmunining sifati past bo'lganiga qaramasdan sovet ta'lim tizimi ta'minlagan tayyorgarlik darajasi yuqori baholangan degan hulosi chiqaradi. SHuning uchun tasodifiy emaski, birorta evropalik o'qituvchining xayoliga ham sovet pedagogika fanidan "uslubiy yordam" so'rash kelmagan. SHunday ekan, nima uchun sovet maktablarining bitiruvchilari doim yuqori intellektual natijalarga erishgan. Afsuski, buning siri yuzada.

Sovet ta'lim tizimi o'zining mazmuniga emas, balki samara-li ma'murchilikka asoslangan edi. Soddashtirib aytganda, oddiy sovet o'quvchisi o'z-o'zini namoyon qilish huquqidan mahrum qilingan edi va faqat "o'qish, o'qish va yana o'qish" huquqiga ega bo'lgan. Bunda sovet maktab tizimi bolalar ruxiga ta'sir etuvchi ko'p usullarga ega bo'lgan. Bu usul u vaqtning "bilmasang -o'rgatamiz,hohlamasang - majburlaymiz" degan ma'lum formula-sida o'z ifodasini topgan.

Bu tizim shunday bo'lganki, bolaga printsiptial ravishda tan-lash imkonini bermagan, unga hech qanday erkinlik bermagan va aynan shu g'oyalarga tizimning samaradoligi tayangan edi. Darslik-lar qiziqarli, dasturlar mazmunli bo'lishi haqida g'am eyishga o'rin yo'q edi. Tizimning ma'muriy samaradoligi maktab dasturi mutlaqo be'mano va quruq bo'lganiga qaramasdan uning yuqori darajada o'zlashtirilishini ta'minlagan.

Bugungi xolat zsa priptsiial ravishda boshqacha. Sovet mak-tabi uchun an'anaviy bo'lib qolgan "ta'lim olishga ma'muriy maj-burlash" tizimi vayron bo'ldi. SHu bilan birga o'quvchi oldida ko'p imkoniyatlar va turli yo'llar ochildi. Haqiqatan, bugungi kunda omadi kelgan un ikki yoshli tadbirkor professor qo'shnisidan bir necha baravar ko'p pul ishlab topsa, sovet maktabining o'qishga bo'lgan qanday an'anaviy undovlari haqida gapirish mumkin?

SHuning uchun kecha "kuchli" va "mustahkam" hisoblangan o'qituvchilar yangi sharoitlarda sarosimaga tushib, o'zlarini yo'qotib qo'yganlariga hayron bo'lmaslik kerak. Nimani bo'lsa ham

-Kolmogorov matematikasini, va boshqa narsani - o'rganish imkonini bergan, sinfda tartibni saqlaydigan va ishchi muhitni yaratgan pedagogik uslubiyatlar o'z samarasini bermay qoldi.

O'qishga undovchi ma'muriy-avtoritar usullar ishlamasdan qoldi va shunda an'anaviy sovet ta'limining "quroli" aslida yalang'och ekanligi va an'anaviy o'quv sxemalarning pedagogik maz-muni juda sayoz va samarasizligi kuo'rinib qoladi.

SHu fikrlarga qo'shilasizmi? Ularni hamkasblar bilan muhokama qiling.

2.Hozirgi kunda butun dunyo mutaxassisleri an'anaviy pe-dagogikani tanqid qilishda hamjihatdirlar. Zamonaviy o'qitishda hanuz umumiy tushunchalar, qoida va qonuniyatlar o'rganiladigan "bilimiy" yondashuv ustuvordir. O'quvchilarning real dunyo ob'ektlari bilan ishlashi hajmi va mazmun jihatidan juda kam. Etakchi ta'lim sohalarini o'rganish odatda o'quv ma'lumotlarining katta hajmini o'zlashtirish bilan cheklanadi. O'quv dasturlari, qo'llanmalari, undan ham ko'proq bevosita o'qitish amaliyotida real dunyo tegishli tushunchalarni o'rganish bilan almashinadi.

O'qitishga an'anaviy yondoshishning asosiy tavsiflarini ko'rib chiqamiz:

qo'llanishi (missiyasi) - bilimlarni uzatish va mavjud, madaniyat, ijtimoiy tajriba, ijtimoiy tizimni qo'llab quvvatlash;

turi - davlat manfaatiga qaratilgan;

tavsifi - reproduktiv;

o'qitishni tashkil qilish -kasbiy faoliyat va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash, yangi ijtimoiy-madaniy tajribani o'zlashtirish maqsadida;

o'qitishning mazmuni - klassik, predmetli, texnokratik; I

o'qituvchining roli - bilimlar uzatuvchisi, o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish maqsadida tuzilgan o'quv jarayonining tashkilotchisi.

An'anaviy o'qitish tushunchasi pedagogika bo'yicha adabiyotlarda albatta yangi, istalgan o'qitish usullariga zid qo'yish maqsadida o'n yillar davomida uchraydi. Bunda an'anaviy o'qitishning odatdagi tavsifi bizda ham xorijiy pedagogikada ham quyidagi asosiy alomatlar bilan tavsiflanadi:

* yangi materialning deyarli hammasi o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon qilinadi;

* darslik asosan mustaqil ish uchun qo'llanadi;

* auditoriya mashg'ulotlari paytida darsliklar ayrim hollarda pedagog tushuntirishlaridan o'quvchilar diqqatini buzmaslik maqsadida qo'llanilmaydi; ko'pincha darslik uyda ham qo'llanmaydi: uning o'rnini dars paytida tuzilgan konspekt bosadi;

* bilimlarni tekshirish asosan mashg'ulot vaqtining sezilarli qismnini egallaydigan shaxsiy og'zaki so'rovlari hamda uzoq muddatlarda o'tkaziladigan nazorat ishlari yordamida amalga oshiriladi. Oxirgi yillarda ob'ektiv testlar ham keng tarqaldi;

* mashg'ulotlar paytida aksariyat hollarda ishniig frontal usuli qo'llanadi, mustaqil ishning nisbiy miqdori juda kam.

O'qitishning bunday tizimini eng jiddiy kamchiligi -o'quvchilarning mashg'ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqiladigan uning past samarasi. Ayrim o'quvchilarning faollik darajasi juda past.

O'qitishga an'anaviy yondashuvlar qatoriga odatda quyidagi usullarini kiritadilar:

- tushuntiruvchi tasviriy (informatsion-retseptiv, informatsion-bildiruvchi);
- reproduktiv usul.

3.Informatsion-retseptiv usulining mohiyati uning quyidagi alomatlari bilan tavsiflanadi:

- bilimlar o'quvchilarga "tayyor" holda taqdim etiladi;
- o'qituvchi turli yo'llar bilan bu bilimlar qabul qilinishini tashkil qiladi;
- o'quvchilar bilimlarni qabul qiladilar (retseptsiya) va ularning ma'nosiga etadilar, o'z xotiralarida saqlab qoladilar.

Retseptsiya paytida informatsiyaning turli manbalari (so'z, ko'rgazmalik va b.) qo'llanadi, bayon mantiqi ham induktiv ham deduktiv yo'l bilan rivojlanishi mumkin.

Pedagogning boshqaruv faoliyati ko'pincha faqat bilimlarni qabul qilib olishni tashkil qilish bilan cheklanadi va olingan bilimlardan foydalanish mahorati va ko'nikmalari doim ham shakllantirilmaydi.

Masalan, agar pedagog tashkil qilgan bilim olish faoliyati faqat tayyor bilimlarni eslab qolish va keyinchalik ularni xatosiz, ayrim hollarda tushunmasdan ham, tiklashga olib kelsa bunda aqliy faollikning past darajasi va unga muvofiq o'qitishning reproduktiv usuli mavjud.

Ta'limning reproduktiv usulida quyidagi alomatlar alohida ajralib turadi:

- o'qituvchi bilimlarni "tayyor" holda faqat bayon qilish bilan cheklanmasdan ularni tushuntiradi ham;
- o'quvchilar bilimlarni tushunib o'zlashtiradilar. O'zlashtirishning mezon — olgan bilimlarni to'g'ri tiklash (reproduksiya)dir;
- o'zlashtirishning mustahkamligi informatsiyani ko'p marta qaytarish yo'li orqali ta'minlanadi.

SHunday qilib, o'qitiishing reproduktiv turi o'quvchiga madaniy-tarixiy qadriyatlarni, me'yor va an'analarni ta'limning tayyor mazmunini uzatishga qaratilgan. Bugun ham o'quv

dasturlari, darsliklar va metodikalarning ko'pchiligi o'rganilayotgan fan usullari orqali xaqiqatni o'zlashtirishga emas, balki fan bo'yicha informatsiyani o'zlashtirishga qaratilgan

Aytib o'tilgan usullarning unumi pastligidan tashqari o'quvchilarning - tayyorgarligida quyidagi kamchiliklar qayd qilinadi: ilmiy bilishni ishonishdan ajrata olmaslik, bilim va xaqiqat orasidagi munosabatlarni tushunmaslik, ilmiy informatsiyalar turli kategoriyalari: faktlar, gipotezalar, qonunlar va printsiplar, modellar, nazariy hulosalar va tajriba natijalarining ishonchlilik darajasini ajrata olmaslik; modellar: nazariy tushuntirish, oldindan qo'rish, bashorat qilish orqali fikr yuritish bo'yicha ko'nikmalar yo'qligi.

Barcha kamchiliklariga qaramasdan informatsion - retseptiv usul kam kuch sarflab, bilimlar va ko'nikmalarining kattagina xajmini o'zlashtirish imkonini beradi. Bilimlar mustahkamligi ularni ko'p marta qaytarish imkoni mavjudligi tufayli yuqori bo'lishi mumkin. V.I.Orlov (1988) qayd etganidek: "Hozirgi kunda reproduktiv o'qitish ikkinchi darajali deb qaraladi. Lekin o'z hayotida odamlarning ko'pchiligi aynan reproduktiv mehnat bilan shug'ullanadi, aks holda jamiyat o'z-o'zini eng zarur narsalar bilan ta'minlay olmas edi. O'qitishda tarbiyalanuvchilarning reproduktiv faoliyati asosiy joyni egallashi lozim, chunki faqat bu shart bajarilganda zaruriy bilimlarni o'zlashtirish va shu orqali ijodga zamin yaratish mumkin". Masalan, chet tilini o'rganishda yangi so'zlarni o'zlashtirish ular ma'lum muddat ichida 20 marta uchrashini talab qiladi.

SHunday qilib, namuna bo'yicha faoliyat usulini tiklash va qaytarish reproduktiv usulning asosiy alomatlaridir. Pedagog og'zaki va yozma nutqdan foydalanadi, o'rganuvchilar esa tayyor namuna bo'yicha topshiriqlar bajaradilar.

1.2. O'zbekistonda yangi pedagogik texnologiya kontsepsiyasini rivojlantirish istiqbollari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

Ilmiy jamoatchilik va pedagoglar tushunchasida “kontsepsiya” so'zi birmuncha ma'nodor - ta'limga yoki biror fanga oid davlat hujjati hisoblanadi. Misol tariqasida “oliy professional ta'lim kontsepsiyasi”, “umumiy o'rta ta'lim kontsepsiyasi”, “mehnat ta'limi kontsepsiyasi”, “pedagogika fani kontsepsiyasi” kabi me'yoriy ta'lim hujjatlarini keltirish mumkin. Kontsepsiya (lotincha - conceptio) - bu etakchi g'oya, aniqlovchi fikr, hodisa va jarayonlarni turlicha tushunish, qarashlar tizimi kabi ma'nolarni anglatishi hisobga olinsa, yuqoridagi fikrning mutloqligiga ma'lum darajada putur etadi. Aniqrog'i, kontsepsiya tushunchasi bugungi tilimizda ma'lum ob'ekt to'g'risidagi fikrlar majmuasi ma'nosida bimalol ishlatilishi mumkin. Biz “pedagogik texnologiya kontsepsiyasi” iborasini qo'llaganda me'yoriy hujjat sifatida emas, balki ob'ektni har tomonlama o'rganish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar, ularni vujudga keltirish omillari haqidagi xulosalarni ilmiy asoslanishini tushunamiz. Ehtimol, vaqti-soati etib kelib bu pedagogik fenomen ham davlat hujjati darajasida ishlab chiqilishi mumkin, buni kelajak ko'rsatadi.

Tezkor vaqt kutib turmaydi, hayot charxpalagi o'z qonuniyatlari o'qi atrofida aylanaveradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonga joriy etish vaqti ham kundan-kun qisqarib borayapti... Biz esa siz bilan hamon befarqmiz, agar ta'bir joiz bo'lsa - mudroq uyqudamiz. Bu holat haqli ravishda bezovtalanishiga, tashvishlanishiga sabab bo'lmayaptimikan, deya o'yga tolasan, kishi. Prezidentimiz Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasida so'zlagan ma'ruzasilarida “...zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida

ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur"ligi haqida kuyinib gapirganlarini bir eslang! Bu kimga qarata aytilyapti?

Taniqli ma'naviyatshunos Tursunoy Sodiqova ta'biri bilan aytganda, do'ppini boshdan olib, mundaq bir tanamizga o'ylab ko'raylik: bu murojaatmi yoki da'vat? Yo'q, ikkalasi ham emas, balki pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan har bir kishi uchun mas'uliyat va majburiyatdir.

Fikrimizcha, bu davlat buyurtmasi ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlangan demokratik davlatlar darajasida takomillashtirishning ustuvor yo'nalishi bo'lib qoldi. Bu buyurtma ba'zi olimlarning vaqtli nashrlarda onda-sonda chop etilayotgan maqolalari bilan yoki yil davomida bir-ikki marta o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjuman tavsiyalari, o'qilayotgan ma'ruzalar bilan hal etib bo'lmaydi.

YAngi pedagogik texnologiyalar uzluksiz olib borilgan rejali tadqiqotlar natijalari, shuningdek, ilg'or maktab tajribalarini o'rganish va ularni texnologiya qonuniyatlariga moslashtirish kabi ijodkor faoliyat evaziga yaratiladi. Harb davlatlarida bu muammo Davlat korxonalari faoliyatini yo'lga qo'yish hisobiga hal etilyapti (qarang: 1-rasm). Bizda ham rivojlangan mamlakatlar qatori "Pedagogik texnologiya Davlat Markazi"ni tashkil etish vaqti etib kelmadimikin? Nima uchun vaqtni qo'ldan boy berishimiz kerak? Bu borada kim, qaysi vazirlik tashabbusni qo'lga oladi? Axir Yurtboshimiz "... alohida nazorat ostiga olish zarur"ligini uqdiryapti-ku? Xullas, savollar ko'p... Ana shu davlat korxonasi tashkil etilsagina, pedagogik texnologiya kontseptsiyasi "g'ildiragi" harakatlanadi, o'quv yurtlarining javobgarligi yanada oshadi, fan o'qituvchilarining faoliyati ijodiy yo'nalishga buriladi. Markazning bosh vazifasi: hozirgi kunda bir-biridan "izolyatsiya"langan pedagogik tizimlar - maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim faoliyatlarida foydalanish mumkin bo'lgan yaxlit texnologiyalarni loyihalash, amaliyotga joriy etish va ommalashtirish kabi ulug'vor ishlarni yo'lga qo'ygan bo'lardi.

Markaz tuzilmasi quyidagi bo'limlardan iborat bo'lish mumkin: "yangi pedagogik texnologiyalarni loyihalash", "o'quv jihozlari va o'qitishning texnik vositalarini (O'TV) loyihalash va ishlab chiqish", "xalqaro hamkorlik", "ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va texnologiya qonuniyatlariga moslashtirish", "pedagogik texnologiya" jurnali tahririyati. Bu bo'limlarning zarurati to'g'risidagi fikrlarni izohlashga harakat qilamiz.

YAngi pedagogik texnologiyalarni loyihalash bo'limi.

YAngi texnologiyalar o'quv jarayonini ilmiy asosda qurishni talab etadi. YAqinda o'tkazilgan bir ilmiy anjumanda hamkasbim "nima, hozir o'quv jarayoni ilmiy asosda qurilmayaptimi? degan savolni o'rta tashladi. Unga javob ham qisqa va aniq bo'ldi: "yo'q".

Bu “yo’q”ning mag’izi shundan iboratki, hozir ta’lim muassasalari faoliyatida PT qonuniyatlariga tayangan o’quv-tarbiyaviy jarayon tashkil etilmayapti. Bu qonuniyatlar mohiyati bilan siz yuqorida batafsil tanishdingiz: tashxislanuvchan maqsad, ta’lim mazmunining abstraktsiya pog’onalarida bayon etilishi, o’quv materiallarini o’zlashtirish sifati, didaktik jarayon tuzilmasi, ob’ektiv nazorat va boshqa.

Ko’pchilik o’quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish deganda tor ma’noda, ya’ni o’qitishning ilmiylik printsiptini nazarda tutishadi. Ilmiylik printsipti boshqa didaktik printsiplar qatorida o’z xususiy jihatlariga ega: ilmiy atamalardan, ta’riflardan, tushunchalardan foydalanish, hodisalarni ochish tarixi, uning tiklanish va rivojlanish istiqbollari va boshqa.

Yangi texnologiya nuqtai nazaridan pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish o’qituvchidan ma’lum o’quv vaqti chegarasida mavzu bo’yicha belgilangan o’quv elementlarini o’quvchi tomonidan o’zlashtirilishi uchun eng maqbul didaktik jarayonni qurish mahoratini talab etadi. Didaktik jarayon esa har qanday pedagogik texnologiyaning asosini tashkil etishini yuqorida eslatgan edik.

Bo’lim faoliyatidagi ustuvor yo’nalish - bu sanoat, qishloq xo’jaligi, transport, aloqa, tibbiyot, iqtisodiyot kabi soha texnologiyalarini didaktik tahlil qilish va imkoniyatlarini baholash asosida yangi pedagogik texnologiyalarni loyihalash hisoblanadi. Bu erda, albatta, loyihalangan yangi texnologiyalar o’z mazmuni va tuzilmasiga ko’ra ta’lim muassasalarining o’quv dasturlariga, o’quvchi yoki o’quvchining o’zlashtirish imkoniyatlari va yoshlik xususiyatlariga mos kelishi shart. Loyihada yangi texnologiyalarning sifat ko’rsatkichlari ham nazardan chetda qolmasligi kerak.

SHunday qilib, bo’limda yangi pedagogik texnologiya mualliflari - pedagogika fanining bilimdonlari faoliyat ko’rsatishadi va o’z loyihalarining sifatini aniqlash uchun ta’lim muassasalarida tajribalar o’tkazishadi. Faqat tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o’tgan loyihalargina yangi texnologiya sifatida tan olinadi va Markaz tomonidan pedagogik amaliyotda qo’llash uchun tavsiyalar beradi.

O’quv jihozlari va o’qitishning texnik vositalarini loyihalash va ishlab chiqish bo’limi. Markazda bu bo’limning faoliyat ko’rsatishi fan va texnikaning jadal sur’atlarda rivojlanishi va unga mos holda axborotlar hajmining keskin ko’payib borishi bilan bog’liq. Inson miyasi turli xil axborotlarni turli darajada qabul qilish qobiliyatiga ega, bu esa ma’lumotlarni engil, erkin va qiziqarli uzatishni talab etadi. Texnik vositalardan dars jarayonida samarali foydalanish didaktika muammosi hisoblanib, asosan, ko’rsatmalilik printsiptini ta’minlash borasidagi faol harakat, usul deb baholash mumkin.

Ta'limda ko'rsatmalilik zarurati bilish jarayonining xarkteri, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, undan keyin esa amaliyotga o'tishi bilan bog'liq. Pedagog va psixologlarning ta'kidlashicha, sezgi, qabullash, tasavvur qilishdan tashqarida fikrlar harakatlanmaydi, shuningdek, o'qitish jarayonida ham olg'a siljish bo'lmaydi. Ko'rsatmalilik faqatgina ongga ta'sir etish bilan chegaralanmasdan o'rganuvchidan ma'lum his-hayajonni, motivni ham yuzaga chiqaradi. his etish va mantiqiy fikrlash birligi asosidagina egallangan bilimlar mustahkamlanadi.

Bugun ta'limni rivojlantirishning yangi pog'onasiga o'qitishning texnik vositalarisiz (O'TV) ko'tarilib bo'lmaydi yoxud PTning muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri- axborotlarni o'quvchi(o'quvchi)larga uzatish tezligi aynan shu vositalar yordamida ta'minlanadi. O'TV faqat ko'rsatmalilik printsipini ta'minlaydi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. O'TV deganda biz ekranli va ovozli vositalarni namoyish qilish uchun qo'llaniladigan qurilmalar, moslamalar bilan birgalikda zamonaviy dasturli ta'limning u yoki bu ko'rinishlarini (kompyuter, elektor aloqa va boshqa) ham tushunamiz. Bu didaktik vositalar ma'lum darajada umumiylikka ega bo'lib, hozirgi kunda barcha ta'lim bosqichlarida - bolalar bog'chasidan tortib universitet auditoriyalarida keng foydalanilmoqda. Bu yo'nalish XXI asrda yana ham rivojlanadi va har bir ta'lim korxonasida axborotlar monitoringi vujudga keladi.

Xo'sh, O'TVni loyihalash ishlari bilan nima uchun PT Markazi shug'ullanishi kerak? Respublikamizda bu muammo bilan shug'ullanayotgan institut yoki ilmiy korxona mavjudmi? Maktab yoki boshqa o'quv yurtlari uchun o'quv jihozlari ishlab chiqadigan zavod ishlab turibdimi? Bugun bu savollarga aniq javob topish kerak bo'ladi, chunki ular Milliy dasturda keltirilgan ta'limning yangi modelini hayotga tadbqiq etish darajalarini belgilab beradi. Sobiq ittifoq Pedagogika Fanlari Akademiyasi tarkibida "O'J va O'TV" (o'quv jihozlari va o'qitishning texnik vositalari) ilmiy tadqiqot instituti 1965 yildan boshlab faoliyat ko'rsatayotgan edi. Endilikda bu institut Rossiya Ta'lim Akademiyasi tasarrufida ishlab turibdi va ilmiy jihatdan asoslangan va me'yorlarga mos keladigan o'quv jihozlarini, texnik vositalarni yaratish hamda zavodlarda ishlab chiqish uchun tegishli buyurtmalar tayyorlash, ulardan foydalanish metodikalarini loyihalash bilan mashg'ul.

Achinarli tomoni shundaki, mamlakatimiz o'quv yurtlaridagi mavjud texnik vositalar nihoyatda eskirgan, foydalanish imkoniyatlari deyarli yo'q bo'lganligi uchun bir chetda chang bosib yotibdi. Respublikamizda esa biror ilmiy tadqiqot instituti bu muammo bilan shug'ullanayotgani yo'q. Axir O'TV - bu faqat kompyuterlardan iborat emas-ku?! qachongacha ularni chetdan xarid qilish mumkin? O'quvchilar psixo-fiziologiyasi va gigienik talablarga javob bera oladigan jihozlar va moslamalar loyihalarini yaratish ilmiy tadqiqot natijalari asosida

amalgga oshiriladi. Bunday loyihalar fikrimizcha, O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tarkibida hamda Oliy va o'rta maxsus maktab muammolari institutida maxsus laboratoriyalar tashkil etishni taqozo etadi. O'quv jihozlari va O'TVning eng maqbul loyihalari asosida tegishli zavodlarda namunalar yaratish va ularni o'quv yurtlarida tajriba-sinovdan o'tkazish, shundan keyingina seriyali ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kerak bo'ladi.

Pedagogik texnologiya Davlat Markazi ham barcha ta'lim korxonalari uchun umumiy bo'lgan zaruriy jihozlarni loyihalarini tayyorlash va shu asosda ta'lim jarayonini tashkil etish texnologiyalarini hisobga olgan holda zavodlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan bo'lardi. Bu jarayon chet el tajribalarini o'rganish bilan bevosita bog'liqdir.

Xalqaro hamkorlik bo'limi. Bu bo'lim bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni chamalasak: 1. Maorif sohasidagi xalqaro tashkilotlar faoliyatini o'rganish. Birinchi navbatda, YUNESKO va Xalqaro Maorif byurosi, shuningdek, Parijda joylashgan "Ta'limni rivojlantirish Xalqaro instituti" faoliyatlarini kuzatish va hamkorlik qilish. 2. Ta'lim to'g'risidagi mavjud Jahon me'yoriy hujjatlarini (Inson huquqlari Dekloratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risida Dekloratsiya, Ta'lim sohasidagi diskriminatsiya bilan kurashish haqidagi Konventsiya va shu kabi 30 dan ortiq xalqaro hujjatlar) o'rganish asosida ta'limni rivojlantirishning global va mintaqaviy yo'nalishlarini belgilab olish. 3. Jahon ta'limi tizimidagi yangiliklarni, Xalqaro konferentsiyalar materiallarini o'rganish va yirik mutaxassislar bilan ishchi yig'ilishlar o'tkazib, ta'limni bashoratlash va rejalashtirish nazariyasi va amaliyotining dolzarb muammolari ustida fikr almashish. Bu bo'lim zarurati Milliy Dasturda belgilangan "Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik" talablariga to'liq mos kelishini ta'kidlash joiz va bu sohada mamlakatimizda katta hajmdagi tadbirlar belgilanganligini va amalga oshirilayotganini ham tan olish kerak.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va texnologiya qonuniyatlariga moslashtirish bo'limi. Pedagogik tajribalarni o'rganishdan maqsad o'qituvchilarning serqirrali va murakkab faoliyatidagi yangiliklarni aniqlash bilan birgalikda ilmiy tadqiqot metodi sifatida nazariya va amaliyot birligini ta'minlashga yo'naltiriladi.

"Ilg'or pedagogik tajriba" shunday amaliyotki, u har doim o'zida yangilik elementlarini, ijodkorlik namunalarini, navatorlik faoliyat qirralarini mujassamlashtiradi. Uning asosiy ko'rsatkichi - natijaviylik, ya'ni ta'lim-tarbiya sohasida yillar davomida erishilgan turg'un samara hisoblanadi. Pedagogik tajribalarni o'rganish sarmashaqqat mehnat talab qiladi va o'ziga xos metod (so'rovnoma, suhbat, hujjatlarni o'rganish va boshqa) va shakllarga (pedagogik o'qish, pedagogik ilmiy guruh va boshqa) ega. Markazda bu bo'limning mavjudligi ana shu tadqiqotlarni amalga oshirishni nazorat ostiga oladi, chunki PT bugun paydo bo'lgan yangilik

yoki yo'nalish emas, u har doim o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish jarayoni ma'lum bosqichlar, amallar, usullar, harakatlardan tashkil topgan texnologik jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchilar tomonidan ongli yoki stixiyali tarzda tashkil etiladi va ma'lum darajada ta'lim maqsadiga erishiladi. SHuni takidlash zarurki , bugungi kun mamlakatimiz ta'lim korxonalarida ko'plab ijodkor o'qituvchilarni uchratish mumkin, ular o'z kasbining fidoyilaridir (biolog U. Misliboev, matematik q. Musaev, boshlang'ich sinf o'qituvchisi M .Abdurasulov va h.k). Biroq pedagoglar har doim ham o'z yangiliklarini "ilg'or tajriba" manbaiga aylantirishga ulgurmaydilar, natijada bu metodika yangi PT darajasiga ko'tarilmagani uchun maktab yoki tuman ostonasidan tashqariga hatlab o'taolmaydi.

Ana shu texnologiyalarni o'rganish, qayta loyihalash, takomillashtirish, keyin esa ta'lim fazosiga joriy etishni Markaz o'z zimmasiga olgan bo'lardi.

Xullas, "qissadan hissa" deganlaridek, biz Pedagogik texnologiya Davlat Markazini tashkil etish davr ehtiyoji ekanligini ta'kidlagan holda ba'zi bir munozarali fikrlarni o'rtaga tashladik. O'z istiqlool va taraqqiyot yo'lidan dadil qadam tashlayotgan mamlakatimizda shunday Markazning kelajakda faoliyat ko'rsatishiga ishonchimiz komil.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA - barcha boshqariluvchi tashkiliy kismlar va ularning bog'liqligini taxlil qilish, tanlash, loyixalash va nazorat qilish yuli bilan pedagogik samaradorlikni yuqori darajaga ko'tarish xamda bu borada tizimli yondashuvni joriy etishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiya (PT) -shunday bilimlar soxasiki, ular yordamida XXI asrda davlatimizda ta'lim soxasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, o'quvchi-yoshlarda xurfikrlilik, bilimga chankoklik, Vatanga mexr-muxabbat, insonparvarlik tuygulari tizimli ravishda shakllanadi. Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh goya xam tabiat va inson uzviyligini anglab etadigan, avtoretar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan sabr bardosh- li, kanoatli, uzgalar fikrini xurmatlaydigan, milliy madaniy va umuminsoniy kadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllantirishni kuzda tutgan insonparvarlik xisoblanadi. Bu masalaning echimi qaysi darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog- lik? Texnologiya tushunchasi texnikaviy tarakkiyot bilan bog'liq xolda fanga 1972 yilda kirib keldi va yunoncha ikki suzdan- texnos (technt)- san'at, xunar va logos (logos) - fan, ta'limot suzlaridan tashkil topib xunar fani ma'nosini anglatadi. Birok bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonini to'liq tavsiflab bera olmaydi. Texnologik jarayon xar doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan xolda amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni kuzda tutadi. YAnada aniqrok aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon bu mexnat kurollari bilan mexnat ob'ektlariga boskichma boskich ta'sir etish

natijasida maxsulot yaratish borasidagi ishchining faoliyatidir. YA'ni: PT- bu o'qituvchi (tarbiyachi) ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (o'quvchi) larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat maxsuli sifatida ulardan oldin belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Xozirgi kundagi pedagogik nashirlarda (texnologiya) atamasini xilma xil talkin etilishi xolatini kuzatishimiz mumkin: o'qitish texnologiyasi, o'quv jarayoni texnologiyasi, ma'lumot texnologiyasi, tarbiy texnologiyasi va x.k. O'qitish texnologiyasi PTga yaqin tushuncha bo'lsada aynan uxshash ma'noni anglatadi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materiallarini uzlashtirish yulini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko'prok xususiy metodika bilan bir jinslidir.

PT esa ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va "o'qituvchi-pedagogika jarayon o'qituvchi (o'quvchi)". Funktsional tizim qonuniyatlarga tegishli bilimlar asosida kuruladi.

Ba'zan metodikani texnologiyadan ajrata olmaydigan, ular bir narsa deb e'tirof etadigan amaliyotchi o'qituvchilar uchrab turadi.

Metodika-o'quv jarayonini tashkil etish va utkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat desak, PT- o'qituvchining kasbiy faoliyatini yakunlovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolaja yigindisidir. Ma'lum vakt davomida PT- o'quv jarayonini texnik vositalari yordamida amalga oshirish deb karab kelingan edi. 70-yillardan boshlab esa pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati ancha keng talkin etila boshlanadi. YAponiya olimi T.Sakovmoto tomonidan "o'qitish texnologiyasi-bu o'qitishning makbulligini ta'minlovchi yul yurik- lar tizimi bilan bog'liq bilimlar soxasi" deb izoxlanadi. Rus olimi N.F.Talizina texnologiyasi "Belgilangan o'quv maqsadga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat" deb tushuntiriladi. I.YA.Lernerning fikricha PT-o'quvchilar xarakat-larida aks etgan o'qitish natijalari orkali ishonch- li anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni takozo etadi. Kurinib turibdiki, PT belgilangan boshlangich maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyixalash sifatida tashkil etil- gan. Bu bir jixatdan to'g'ri bo'lsa, chuqurroq taxlil etilsa, bir yoklamalik aniqlanadi yoki bunday yondashuvda o'quvchi shaxs e'tibordan chetda kolmokda. Bu xolatni yoki kamchilikni akademik V.P.Bespalko aniqladi va PT bu o'qituvchi maxoratiga bog'liq bulmagan xolda pedagogik muvofakiyatini kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsni shakllantirish jarayoni- ning loyixasidir deb ta'riflaydi. Bu ta'rif asosida kuyidagi ilmiy tamoyillarni ko'rsatish mumkin:

PT o'quvchi (o'quvchi) larda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyixalanadi;

Loyixalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta maxorat talab etmaydi; YAkuniy natija, albatta, kafolatlanadi.

PT moxiyatini aniqlashga karatilgan ta'r-iflarning xilma xilligi rivojlangan mamlakatlarda bu masalani u yoki bu darajada xal etilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan PTni amaliyotga joriy etishga bulgan urinishlar natijasini ifodalaydi.

PT to'g'risidagi tushunchalarni rivojlanish tarixi nuqtai nazardan qaralgan, PT nazariyasi va amaliyotini bir biriga bog'liq bulmagan xolda talkin etilganligini kuramiz. Natijada o'qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o'quvchilarning bilim faoliyatini rivojlantirishga karatilgan u yoki bu ilgor metodikalar texnologiya darajasiga ko'tarila olmay asta sekinlik bilan uz mavkeini yo'qotib pedagogik nazariyasidan uzoklashib borgan. Masalan 60-yillarda katta shov-shuvga sabab bulgan "Dasturli ta'lim" yoki 70-80-yillardagi "shatalovchilik xarakati" kabilar.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi pedagogik soxa mutaxasislarining ilmiy saloxiyati PT moxiyatini ochib berishga etadi. PT ni pedagogik fanning aloxida tarmogi sifatida yoki fakat ta'lim amaliyotini makbullashtirishga yunaltirilgan ta'lim yunalishi deb karash xam makul emas. ***PT bu soxadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatini aks ettiradi.***

PT ga "yangi" suzini kushib qo'llanilishi-bu ta'lim- tarbiya jarayonini loyixalashga eskicha yondashish mumkin emasligini ko'rsatadi. Demak, savol tug'iladi "yangi PT" nimani anglatadi? SHaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab oladi va shunga mos xolda ma'lum pedagogik tizim (maktab, kollej, oliy o'quv yurti) mavjud buladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma uz ta'sirini va ta'lim - tarbiya maqsadini umumiy xolda belgilab beradi. "Maqsad" esa uz navbatida pedagogik tizimning kolgan elementlarini yangilash zaruratini keltirib chikaradi.

Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yunalishga buradi: "utmishdan kolgan mafkuraviy karashlar va sakitlar dan tula xolos bulgan, rivojlangan demokratik davlat darajasida yuksak ma'naviy va axlokiy o'quvchilarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash"- deb belgilanadi. Demak, ta'lim - tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanadi, unga mos xolda mazmun xam, pedagogik jarayon xam yangilanish ruy bermokda, bunday yangi texnologiyalar kirib kelmokda. YAngi metodikalarni talab etadigan va unga uzining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli poligrafik, audiovizual vositalar mavjudki, ular yangi PT ni real voqelikka aylantiradi.

PT moxiyat jixatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular xam boshqalar katori uz xususiy soxasiga, metodlariga va vositalariga ega, ma'lum "material" bilan ish kuradi. Birok, PT inson ongi bilan bilimlar soxasi sifatida murakkab va xammaga tushunarli

bulmagan pedagogik jarayon ifoda etish bilan ishlab chikarish, biologik, xatto axborotli tarbiya komponentlarini mujassamlantirgandir. PT boshqa soxalardagi texnologik jarayonlar bilan uzuliksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Afsuski, bu jarayon xozirgi ta'lim tizimida juda kiyin kechyapti, xakikiy kompyuterli PT uzining ilmiy ishlamasini kutyapdi: "Kompyuterlarning shu kundagi qo'llanishi - ekstensivlik xolos: an'anaviy o'quv kurslari shunchaki ekran monitoriga joylashtirilyapti". SHu erda PT va axborot texnologiyasi o'rtasida uzaro munosabatni oydinlashtirish lozim buladi. Keyingi vaktlarda ba'zi bir olimlar (informatika soxasi vakillari) PT ni axborotlash- tirishga qo'shish yoki tenglashtirish (ba'zan ustun qo'yish) ni yoklamokdalar. Bu urinishlar to'g'ri yul emas. O'quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish tarixiy (ayniksa XX asr ikkinchi yarimidan boshlab) voqeylik va jarayondir. Axborotlashtirish bu jarayondagi inkilobiy "burilish" uning muxim boskichdir. Sodda kilib aytilsa, ta'limda axborot texnologiyasi - bu "o'quvchi- kompyuter" o'rtasidagi muloqotdir.

Ta'limni texnologiyalashtirish ob'ektiv jarayon ekanligini zamonaviyligi esa ilmiy-texnik tarakkiyot yunalishi bilan belgilanishi tan olingan xolda PT ning o'ziga xos tomonlari va yaqin kelajakda u bilan bog'liq vazifalarni ko'rsatib o'tamiz?

- 1) ko'p boskichli ta'lim tizimida PT ning o'rmini asoslash zaruriy.
- 2) zamonaviy sanoat, tibbiy, iqtisodiyot, ekologiya kabi texnologiyalar bilan PT larni muntazam ravishda yangilab borish va tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ularni samaradorlik mezonlarini aniqlash;
- 3) istikbolli o'qitish vositalarini yaratish va ularga tayangan xoda ilgor PT larni loyixalash, amaliyotga joriy etish, ommalashtirish va aniqlash;
- 4) Tegishli boshqaruv organlari (ta'lim markazlari) tomonidan o'quv muassasalari faoliyatida yangi PT larni tadbik etish darajasini nazorat kilish va baxolash;
- 5) Pedagog- o'qituvchilarni ilgor pedagogik va axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlar tizimi bilan kurollantirishni o'zuliksiz tashkil etish;
- 6) Bo'lajak pedagogik - o'qituvchilarga PT nazariyasi va amaliyoti bo'yicha maxsus kurs tashkil etilishi va o'qitish;
- 7) Ilgor o'qituvchilar ish tajribalari va usullarini o'rganib borish, ularni yaratgan yangi metodikalari yangi pedagogik texnologiya darajasiga ko'tarish borasidagi ishlarni amalga oshirish;
- 8) O'qituvchi faoliyati pedagogik texnologiya, qonunlariga moslashtirish muammolari va boshqalar.

Pedagogik texnologiya yordamida ta'lim jarayonidagi xato, kamchiliklarni, mavjudligini oldini olish, maqsadni qo'ya olish, ta'lim jarayoni pedagogik texnologiya sifatida karash, yangilikka, ijodga intilish.

SHunday kilib, pedagogik texnologiya-ta'lim-tarbiya jarayonini majmuyini amalga oshirish texnikasidir.

O'zbekistonda ta'lim samaradorligini oshirish va rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni ahamiyati.

Pedagogika fani ta'lim jarayoning ikki tomonlama xususiyatiga ega ekanligi o'quvchi tomonidan bajariladigan o'quv faoliyati va o'qituvchining urgatushanlik faoliyati yigindisi didaktik jarayoni ekanligiga asoslanib berilgan.

Prezident Islom Karimov "Ta'lim O'zbekiston xalk ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. Usib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon buladi, kasb - kori, maxorati o'zliksiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasini anglab olinadi va yosh avlodga utadi"- deb, ta'lim tushunchasi milliy nuqtai nazaridan ta'rif berilgan. YUrtboshimiz tomonidan ta'limning yangi modeliga asosan solindi va uning kelajak istikbollari ilmiy asoslab berildi. Ta'limning yangi modelini amaliyotga tadbik etish o'quv jarayonini texnologiya bilan bog'liqdir. Jumladan, xozirgi kunda barcha soxalarda yangi texnologiyalarni joriy etilishini xayotning o'zi, ilmiy-texnikaviy tarakkiyot talab etmokda. SHuning uchun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida "O'quv - tarbiyaviy jarayonini ilgor pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash" uning 2 va 3 - boskichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Tabiiy savol tug'iladi: Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbik etish zarurati tug'ildi?

Bu omil mamlakatimizning ijtimoiy siyosatini belilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan modelning amalga oshirish bilan jamiyatimizning xayotida ruy berish kutilayotgan "**Portlash effekti**" ijobiy natijalar ruyrost ko'rsatib berildi:

- ijtimoiy - siyosiy iklimga ijobiy ta'sir kiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muxit butunlay o'zgaradi:

- insonning xayotidan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi:
- jamiyatda mustakil fikrlovchi erkin SHaxsning shakllanishiga olib keladi:
- jamiyatimizning potentsial kuchlarini ruyobga chikarishda juda katta ahamiyat kasb etadi:

-fukarolik jamiyatini ko'rishni ta'minlaydi, model vositasida dunyoda munosib urin olishga, o'zbek nomini yanada yoyib tarannum etishga erishiladi.

Prezidentimiz tomonidan ko'rsatib berilgan "portlash effekti" sari shijoat bilan kadam tash-lash, bu yulda uchraydigan kiyinchiliklarni bos- kichma- boskich va izchil xal etish masalalari nafakat pedagogik nazariyoti va amaliyotlarini junbushga keltiradi, balki, jamiyatimizni to'liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chikaradi. Demak, jamiyatimizning xar bir fukarosini tarbiyashunoslik asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson kilib voyaga etkazish jarayoni yangi pedagogik "kurol" va vositalar bilan ta'minlash davr takazosidir.

Sungi payitlarda pedagogik olimlar, amaliyot-chilar ilmiy asoslangan ta'lim texnologiyalarini o'z faoliyatlarida keng kullashga intilmokdalar. Ta'lim texnologiyalarini ishlab chikish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadbik etishni kuzda tutadi, bunda eng avvalo kuydagilarni aniqlash lozim:

- ta'lim texnologiyasi sifatida nimani anglatishi va uning tuzilmasi kandy tarkibiy kislmlardan tashkil topgan;

- jarayon sifatida ta'lim texnologiyasining funksional to'zimasi nimalardan iborat;

- ta'lim texnologiyalari Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlariga kandy darajada to'g'ri kelishi va uni kandy baxolash mumkinligi.

O'quv jarayonini texnologiyalashtirishda didaktik masalalarni belgilash qonuniyatlari.

Erkin SHaxsni shakillantirish muammosi ta'lim muassasalarida o'quv- tarbiyaviy ishlarni pedagogik texnologiya "rels" iga utkazish takazo etadi. Bu jarayon oson kechmaydi. CHunki: butun ixtiyoriy kurilayotgan va joriy etilayotgan o'qitish tizimini kat'iyon ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. Aslida xam ijtimoiy tajriba elementlari-bilim, ijodiy faoliyat, ob'ektiv borlikka munosabatlar - pedagogik jaryon maxsulidir va ma'lum pedagogik tizim doirasida shakillantiriladi. Pedagogik texnologiya esa amaliyotga joriy etilayotgan pedagogik tizim loyixasidir. Unda pedagogik tizim nima? Uning tarkibi kandy? Bu savollarga mavjud pedagogik nashrlardan topish mumkin.

N.V.Kuzmina pedagogik tizim o'zida ta'lim va tarbiya maqsadida buysindirilgan o'zaro bog'liq tarkibli elementlardan tashkil topishini ukdira-dilar: pedagogik maqsad; o'quv va ilmiy axborot; pedagogik aloka vositalari: o'quvchilar va pedagogik. V.P.Bespalkoning ta'rifiga kura "Pedagogik" tizim ma'lum shaxs sifatlarini shakillantirshga tartibli, aniq maqsadni kuzlab va oldindan uylab pedagogik ta'sir etishini vujudga keltirish uchun zarur bulgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlar yigindisidir. Xar jamiyatda shu jamiyat mafkurasiga xos shaxsni

shakllantirish maqsadi va unga mos pedagogik tizim mavjud buladi. Agar maqsad o'zgarsa tizim xam o'zgaradi.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturi jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini xis etadigan fukarolarni tarbiyalashni bosh maqsad kilib kuygan. Demak, Milliy dastur ta'lim va tarbiya soxasidagi davlat buyurtmasi xisoblanib miliy mafkuraning tarkibiy kismini tashkil etadi. Fakat ijtimoiy (davlat) buyurtmasigina belgilab beradi yoki oliy (o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar) ta'lim uchun pedagogik tizimining mavjudlik shartlarini kafolatlaydi.

Kuyidagi barcha ta'lim tizimlari uchun umumiy bulgan pedagogik tizim loyixasi keltirilgan. Professor N.Saydaxmedovning tadkikot etishicha xar kanday pedagogik tizim o'zaro bog'liq bulgan kuydagi invaritiv elementlardan tashkil topadi: 1- o'quvchilar ; 2-ta'lim maqsadlari, 3-ta'lim (t-ya) mazmuni, 4- didaktika jarayonlar, 5- tashkiliy shakllar 6-pedagogik yoki o'qitishning texnik vositalari (UTV) .

YUqoridagi shakldan 2 ta tushunchani izoxlash muki: didaktik masalalar va ularni amalga oshirishning pedagogik tizim doirasida inson faoliyatining muxim soxasi sifatida aniq maqsad va unga erishish uchun shart - sharoitlar xamda bu faoliyat uchun axborotlar bulishi kerak.

3. Didaktik masalalarni xal etish maqsadi shaxsning ma'lum sifatlarini shakllantirish zarur bo'lsa, shart sharoitlar-o'quvchi (o'quvchi) larning boshlangich sifat ko'rsatkichlari, axborot esa o'quv predmetining mazmuni yoki tarbiyaviy ta'siridir.

Xar bir didaktik masala pedagogik tizimda o'ziga mos keladigan PT elementlari bilan xal kilinadi, ular didaktiv jarayon, o'qitishning tashkiliy shakllari xamda pedagog yoki o'qitishning texnik vositalari (UTV). YUqorida shakl ijtimoiy buyurtma yunalishi didaktiv masalalarga karatilgan va bu bejiz emas, chunki ta'lim xar doim jamiyat talablarini kondirishga xizmat kiladi va u ongli ravishda yoki induktiv tarzda tez, balki sekinlik bilan bu talablarga mos xolda tuzilib boradi. XXI asr busagasida ta'lim tarakkiyotining xarakatlantiruvchi kuchi, xakkoniy dvigateli- bu o'zida didaktiv masalalar va PT ni mujassamlashtirilgan pedagogik tizim xisob- lanadi. PT ning muvaffakiyatli loyixalanishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o'qituvchining didaktik masalalar moxiyatini anglab etish darajasiga va darsda ularni to'g'ri belgilab olishga bog- likdir. Bu vazifa xozirga kadar o'qituvchilar tomonidan anglashilmay kelinyapti, kator xollarda esa ular metodikani texnologiyadan farklay olmayaptilar.

SHu boisdan kuyida PT ning loyixalanishi uchun zaruriy shartlardan biri didaktik masalalar to'g'risida fikr yuritiladi. CHunki xar bir o'qituvchi pedagogik faoliyatga kirishishidan

oldin xal etilishi lozim bulgan pedagogik masalalarni etarlicha aniq tasavvur etishi va ifodalanishi, ayni paytda o'z o'quvchilariga xam tushuntira olishi kerak.

Bugungi xar kadamda va xar kanday ta'lim muassasasining o'qituvchisi faoliyatida tasodifiy o'quvchi (o'quvchi) lar guruxining aniq urnatilmagan maqsadga erishish uchun ixtiyoriy tanlangan ta'lim mazmunini o'zlashtirishga oid xarakatlarni boshqarayotganligini kuzatish mumkin. Bu xolatni izoxlashga xarakat kilamiz.

4. Getrogen gurux. Nima uchun “*tasodifiy o'quvchilar guruxi*” deyapmiz? Ma'lumki, o'quv yurtlariga (maktab, kasb-xunar kolleji, oliygox va boshqa) o'quvchilarni kabul kilish, asosan, ikki omil vositasida amalga oshirilyapti, ya'ni: o'zlashtirish darajasiga yoki yoshlarning tengligi (yaqinligi) ga karab. Ayni paytda abituriyentlarning shaxs sifatleri, tugma iste'dod nishonalari, qobiliyati, faoliyatga qiziqishlari va boshqa yakkaliy xususiyatlari xisobga olinmayapti. Natijada o'quv guruxlari tasodifiy tarkibi N ta o'quvchilar sonidan tarkib topadi, ya'ni “**getrogen**” gurux tuziladi. “Bozor ma'muriyati” ustiga bu gurux o'quvchilariga bir xil o'quv fani sharoitida yagona ta'lim maqsadiga erishish zarurligini uktiriladi. Bunga esa amaliyotda erishib bulmaydi. Olti oylik sessiya natijalarini kuz oldingizda gavdalantring, xayratdan yoka ushlaysiz! Axir o'quvchilar test yordamida imtixon topshirib o'qishga kirgan-ku? Nima uchun imtixon natijalari yomon? Sababi nima ekan?

Sababi esa biz yuqorida tilga olgan omillar: o'quvchida qobiliyat nishonalari yo'q yoki tanlagan faoliyat turiga qiziqmaydi. SHu boisdan, xatto, bitiruvchi boskich o'quvchilari xam ko'pincha kelajakda qaysi mutaxassis egasi bo'layotganligini yoki bo'lajak ish faoliyatini to'liq tasavvur etisha olmaydi.

Ta'lim texnologiyasi tizim sifatida qaralsa, uning tuzilmasini *tashkiliy funktsional elementlar* bo'yicha tasavvur etish mumkin: Ta'lim texnologiyasining tashkiliy elementlari-taxsil beruvchi, taxsil oluvchi, maqsad, natija, axborotlar mazmuni, metodlar vositalar, usullar va o'qitishning tashkiliy shakllari, nazorat kilish, tashxislash, axborotlar olish usul va vositalaridan iborat.

Pedagogik jarayon o'quv maqsadini qo'yish bilan boshlanadi. Maqsad shunday aniq bulishi lozimki, u vositasida ta'lim-tarbiya jarayonini kanday darajada amalga oshirilganligini aniqlash, berilgan vaktda kuzlangan maqsadga erishishni ta'min-laydigan didaktik jarayonni ko'rish imkonini bersin.

Ta'lim texnologiyasining maqsadi o'rganilayotgan o'quv predmetining maqsadlaridan va mazmunidan, tarbiyaviy ta'siridan kelib chiqqan xolda aniqlanadi, xamda ta'lim maqsadiga mansub buladi.

Axborot mazmuni, yangi o'quv materiali kuydagilarda o'z aksini topadi: kurilayotgan fanni o'qitish, mazmunni o'zida aks ettirgan ta'lim texnologiyalari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarining matni, axborot manbalari.

O'qitish metodlari, vositalari, usullari va tashkil etish shakllari, ya'ni taxsil oluvchiga pedagogik ta'sir etish texnikasi va kurollari, axborot mazmuni va didaktik maqsadlarga uygun xolda tanlab olinadi va amaliyotga tadbik etiladi. SHuningdek, bunga taxsil oluvchilarning yosh, fiziologik xususiyatlari, ta'lim muassasalarining moddiy jixozlanishi, ijtimoiy muxit xam xisobga olinadi.

Agar qo'yilgan maqsad bilan olingan natija bir-biriga mos kelsa, pedagogik jarayon tugaydi. Bunda qo'yilgan maqsad bilan olingan natijaning to'liq mosligini ta'minlanishni ko'rsatib utish zarur, chunki ular predmetning ob'ektiv muxim qonunlaridan kelib chikadi.

Lekin pedagogik faoliyat shaxsiy-sub'ektiv emotsional xarakteriga egadir. U pedagogning individual, ijodiy kobilyatiga, kasbiy-psixologik xususiyatlariga va taxsil oluvchilarning ko'plab idividual, akliy va boshqa shaxsiy xususiyatlariga asoslanadi. SHuning uchun xam uning natijasi ***variativ xarakterga ega bulishi mumkin.***

SHuni takidlash joizki, ko'rsatilgan pedagogik tuzilmaning biror elementi xam mavjud bulmasa, unda pedagogik jarayonning o'zi kechmaydi yoki kuzlangan natijani to'liq bera olmaydi. Xar kanday xolda xam bunday pedagogik jarayondan ijobiy natija olish tasodifiy xarakterga ega buladi.

O'quv materiallarining mazmunini urgatishda kuzda tutilgan maqsadi, o'qituvchi va o'quvchilar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va xisobga olish varakalari, berilgan uy ishlar mikdori, mavzulari bo'yicha utkaziladigan test savollari, reyting nazorat boskichlari, etalon darajasida o'zlashtirish usuli oldindan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarning barchasini ongda ta'lim modelini yaratishga olib keladi.

“Pedagogik texnologiya” doirasida ta'limning tashkiliy-uslubiy jixatidan ilgari qo'yilgan ta'lim maqsadalariga turli uslubiy majmualar yordamida erishish mumkin. Agar texnologik tizimlarda asosiy e'tibor masala va nazorat sxemalarini ko'rishga karatilgan bo'lsa, uslublar majmuasini tanlash asosan empirik asosda amalga oshiriladi.

Ta'lim texnologiyasi kuydagi uch boskichdan iborat, ko'plab operatsiyalarni kamrab oladi: loyخالashtirish, amalga oshirish, nazorat kilish va baxolash.

I.LOYIXALASH - muljallangan maqsad va uni amalga oshirish usuli va vositalari yigindisini aniqlashdan iborat. Bu blok doirasida kuydagi ketma-ketlikda operatsiyalar amalga oshiriladi:

-ta'lim texnologiyasini amalga oshirish vaktini aniqlash; o'quv choragi, yarim yilligi, yillik va butun o'qitish davri uchun;

- o'quv materiallarini taxlil etish;
- maqsad va didaktik vazifalarni ajratib olish;
- o'quv materiallarini ma'lum tuzilmaga keltirish va vakt buycha taksimlash;
- bilim, kunikma va malakalarni o'zlashtirish boskichlari, shuningdek, shaxsning sifat va fazilat-larini rivojlantirishni aniqlab olish;

- o'quvchilarni qiziqtirish usuli va vosita-larini aniqlash. O'quv materiallarini takrorlash, kirish, joriy ko'rsatmalar berish, o'quvchilar diqqat-e'tiborini o'quv materiallarining muxim tomon-lariga jalb etish maqsadida muommoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, qiziqarli bilish vazifalari va shu kabilarni oldindan belgilab olish. Ular oldindan belgilangan va maqsadga etaklovchi vosita sifatida qaralmogi lozim. Bunday yondashuv taxsil oluvchiga o'z o'quv - bilish faoliyatining tuzilmasi va mazmunini tasavvur etirish imkonini beradi.

Rejalashtirilgan natijalar xakida tasavvur tarkib toptirish kuydagi shakllarda rasmiylashtiriladi:

Bilim, kunikma ish - xarakat usuli, muxim yunalganlik, ijtimoiy muxim shaxsiy sifat va fazilat-lari va boshqa yoki kutilgan natijalari yozishmasi.

Oqilona o'qitish modeli tuziladi, ular didaktik vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi va o'qitish metodlari, tashkil etish shakllari, vositalari, pedagogik usullar tuplamidan iborat. Ko'rsatiladigan kurollar va pedagogik texnik o'quv materiallariga, o'quvchilarning shaxsiy qobiliyati va rivojlanganlik darajasiga uygun bulishi kerak. SHuningdek, ta'lim muassasasining modiy ba'zasi xisobga olinishi lozim.

Darslarning tuzilmasi uylab kuruladi va kuydagicha amalga oshiriladi:

- ta'lim - tarbiya ishining xozirgi xolatini diagnostikalash;
- nazorat kilinadigan muxim ko'rsatkichlarni ajratib olish;
- pedagogik jarayon xolatini joriy va yakuniy nazorat kilish;

Tashxislash va nazorat kilish natijalariga asosan teskari aloka boglash usullari va vositalarini aniqlash;

Ta'lim texnologiyasini amalga oshirish uchun extimoldan xoli bulmagan va unga xalakit beruvchi omillar tashki muxit va ularni bartaraf etish yullari uylab kuruladi.

II.TA'LIM LOYIXASINI AMALGA OSHIRISHDA quydagi ishlarga aloxida e'tibor qaratiladi:

-o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchilarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriklarni, shuningdek, uy vazifalari, mustakil ishlarni, ularni bajarish

tartibi, paytini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish buyicha ko'rsatmalar berish, etalon darajasida o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish;

- o'quvchilarning faol, mustakil faoliyatini ragbatlantirish, bolalar diqatini bulim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni kanday urgatish zarurligini aytib, bilishga qiziqish uygotish o'qish-o'rganishga xavas, muammolarni bajarishga extiyoj uygotish. Emotsiyalar, tafakkur xodisalari bilimlarni o'quv xolatlariga tadbik etish yullari orkali mavzu bo'yicha ma'lumotlar tuplash, tuplangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgartirish, kushimcha, to'zatislarni belgilash;

- bulim yoki mavzu bo'yicha tuplangan bilim-larga ishlov berish. Ta'lim jarayoni stoxastik xark-terga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalash-tirilgan, favkulodda va tasodifiy xodisalar xam uchrab turadi. Binobarin, o'rganilgan natijalarga asoslanib loyixaga yangi o'zgartirish, kushimcha, to'za-tishlar kiritiladi, bolalarning etalon darajasiga kanchalik yaqinlashganliklari xam aytib utiladi;

- bulim yoki mavzu buyicha umumiy xulosalar chikarish, chikarilgan xulosalarni murakkab o'quv xolatlariga tatbik qilish. Oralik nazorat natijalariga kura mavzu yoki bulim buyicha axborot tuplash, tuplangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o'quvchilar erishgan yutuklarni taxlil qilish, o'quvchilarning bilim, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlaridagi kamchilaklarini ko'rsatish, sinfning xar bir o'quvchisiga yakuniy nazoratgacha bajaradigan kushimcha topshiriklar berish, bolalarni o'quv materiallarini yanada atroflicha etalon darajasida o'zlashtirishga ragbatlantirish;

-yakuniy nazoratning asosiy fukktsiyasi bolalar-ning ma'lumot va ta'lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o'zlashtirgan o'quvchilarni ogoxlantirish, kushimcha topshiriklar berish.

III.NAZORAT QILISH-BAXOLASH BLOKINING vazifasi qo'yilgan maqsadni amalga oshirishning borishi xakida joriy, oralik va yakuniy nazoratlarni utkazish, ya'ni muntazam ravishda teskari alokani ta'min etish va axborotga kayta ishlov berishdan iborat. Olingan axborotni taxlil kilib, zarur xollarda kelgusida xarakatlarga o'zgartirishlar kiritiladi va nixoyat, qo'yilgan maqsad va olingan natijalarning mosligi xakida xulosa chikariladi. Xar kanday maqsadga erishishda vaziyat bevosita natijalarning mosligi xakida xulosa chikariladi.

Xar kanday maqsadga erishishda vaziyat bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. SHuning uchun xam biz chizmada ko'rsatilgan bu omilni tashki shart-sharoitlar va tusiklar shaklida ko'rsatishni lozim deb bildik.

Tashki shart - sharoitlar : o'quv binolari, xonalarni jixozlashda, texnik va boshqa vositalar bilan ta'minlanganlik darajasida, ijtimoiy muxit va boshqalarda o'z aksini topadi.

Kuzlangan maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi omillar o'ziga xos tusik bulishi xam mumkin:

-pedagogik tizimning barcha tashkiliy elementlari va ularning o'zaro alokadorligida uygunlikning mavjud emasligi;

-ta'lim jarayoni ishtirokchilarining psixo-logik, shaxsiy, individual va boshqa xususiyatlari.

- taxsil beruvchining kasbiy kompetentligi kabilar.

Pedagogik texnologiyalar kullash darajasiga kura universal yoki xususiy idorada bulishi mumkin.

Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchi (talaba)larning bilish faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan ***o'qitish metodlari*** yordamida tashkil etish demakdir. O'qitish metodlari o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchi (talaba)ning hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash asosida jamiyat tomonidan maktab (kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yurtlari) oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyadir. "O'qitish metodi dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. Bu loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining o'zaro tutashuvi tekisligida, o'qitish va o'qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo'lish shakllari yo'q, sababi umumiy holda o'qitish metodi o'zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi"

Amerikaning "Street law" (ko'cha qonuni) dasturi bugungi kunda er yuzining ko'plab davlatlari tomonidan "asr"ga olingan va ta'lim makoniga o'rnashib qolayapti. Bunga sabab dasturdan o'rin olgan yuzlab o'qitish metodlarining faolligi, jozibaligi va ta'sirchanligidir. Ular yordamida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, axborotlarni tanqidiy qabul qilish, jamoada ishlash, o'z mavqeini mustahkamlash, fikrlarini himoya qilish, haq-xuquqlarini anglab etish kabi imkoniyatlarga tezda ega bo'ladilar. O'qituvchi esa didaktik jarayonni qurishda bu metodlardan oqilona foydalanmog'i, ularni mavzu bo'yicha o'quv elementlarining murakkabligi va vaqt tig'izligiga qarab chalg'ishtirmog'i lozim. quyida "Street law" dasturidagi ba'zi metodlar bilan tanishasiz, ularning siru-sinoati va sehridan voqif bo'lasiz.

"AQLIY HUJUM".



“Aqliy hujum” metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni echish jarayonlarini vaqt bo’yicha bir qancha bosqichlarga (g’oyalarni generasiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. “Aqliy hujum”ni uyushtirish bir muncha sodda bo’lib, undan ta’lim mazmunini o’zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining echimini topishda ham juda qo’l keladi. Dastlab guruh yig’iladi va ular oldiga muammo qo’yiladi. Bu muammo echimi to’g’risida barcha ishtirokchilar o’z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o’zga kishi g’oyalariга hujum” qilishi yoki baholashiga haqqi yo’q. Demak, “aqliy hujum” yo’li bilan qisqa minutlarda o’nlab g’oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo’ladi. Aslini olganda g’oyalar sonini qo’lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo echimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo’ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta’sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo’lishi kerak. Bildirilgan g’oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo echimini topishga salohiyatli imkoniyatlar yaratadi.

SHunday qilib, “aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg’a surilgan g’oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g’oyalar qancha ko’p bo’lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g’oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo echimidan uzoq g’oyalar ham qo’llab-quvvatlanadi;
- barcha g’oyalar yoki ularning asosiy mag’zi (farazlari) qayd etish yo’li bilan yozib olinadi;
- “hujum”ni o’tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko’zda tutilishi kerak.

VAZIFASI. “Aqliy hujum” qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni ko’rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilliligini yo’qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni echish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o’tiladi va guruh (sinf) yanada jipslashadi.

OB’EKTI. qo’llanish maqsadiga ko’ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), o’qitish jarayonida (o’quv materiallarini tezkor

o'zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o'z-o'zini bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

QO'LLANISH USULI. “Aqliy hujum” ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib borildi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generasiyalanadi va muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

Izoh: hurmatli kitobxon, mana, amerikacha “aqliy hujum” metodi bilan qisman tanishdingiz (siz, ehtimol, oldindan tanishdirsiz). Aytmoqchi bo'lgan fikrimiz inkor va ta'kid xususida: **bu metod mualliflari bizning ajdodlarimizdir.** hali Amerika kashf etilmagan bir davrda o'z aql mash'alasi bilan dunyoni yoritgan qomusiy olimlarimizni (Ahmad al Farg'oni, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqa) olasizmi, yoki etti iqlimni zabt etgan shohu-sultonlarimizni olasizmi, ular o'z muammolarini echishda ana shu metoddan keng foydalanishgan. Bobokalonlarimiz bu metodni boshqacha nomlashgan, ya'ni: **“kengash”, “mashvarat”, “maslahat”** deb atashgan. Misol uchun ,Sohibqiron Amir Temur saltanat oldida turgan muammolarni echishda mashvarat chaqirib barcha saroy ahlining, vaziru-ulamolarning, farzandlarining fikrlarini diqqat bilan eshitgan va ular asosida yagona hukm chiqargan. Bu holatlar ko'proq harbiy yurish oldidan chaqirilgan mashvaratlarda namoyon bo'ladi. “Agar (g'anim ustiga) lashkar tortmoqchi bo'lsam, urush-yarashdan o'rta so'z tashlab, amirlarimning bu ikkovidan qay biriga moyilligini bilishga intilardim. Agar yarashdan so'z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko'rardim, agar urushga moyil bo'lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko'rardim, qaysi biri foydaliroq bo'lsa, shuni ixtiyor qilardim” (28). Bugun ana shular haqida o'yga tolib, “g'arb sharqdan o'rgangan”ligiga yuz foiz ishonch hosil qilamiz va yana bir karra yaratganga iymon keltiramiz.

“AJURLI ARRA”



“Ajurli arra” metodi tuzilish jihatidan o'zida quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1.TOPSHIRIQNI BO'LISH: Topshiriq va matnli materiallar bir nechta asosiy qismlarga (yoki mavzularga) qirqladi.

2.BIRLAMCHI GURUHLAR: har bir guruh a'zolari qirqlangan mavzuni oladir va ekspertga aylanadir.

3.EKSPERT GURUHLARI: qo'lida bir mavzuga oid o'quv topshiriqlari mavjud bo'lgan o'quvchilar mavzuni muhokama qilish, boshqalarga o'rgatish rejasini egallagash uchun ekspert guruhga birlashadilar.

4.BIRLAMCHI GURUHLAR: O'quvchilar o'zlarining birlamchi guruhlariga qaytadilar va ekspert guruhlarda o'rganganlarini o'qitishadi.

IZOH: "Ajurli arra" mohiyatiga aniqlik kiritish uchun ba'zi bir tavsiyalarni yoritish lozim.

1.O'qitish jarayoniga bu tarzda yondashilganda o'quvchilarning hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishlariga imkon tug'iladi.

2.U yoki bu faoliyatni darsda amalga oshirish uchun o'quvchilarga boshlang'ich axborotlarni uzatish zarurati tug'ilsa, ma'ruza o'rnini bosa oladigan samarali instrumentariy hisoblanadi.

3.O'qituvchi murakkab mazmunli mavzular bo'yicha o'quvchilarni darsga tayyorlash uchun oldindan ularning har biriga mo'ljallangan alohida axborotli paket tayyorlaydi. Unda darslikdan, qo'shimcha tarzda gazeta, jurnal, maqolalardan materiallar bo'lishi kerak.

4.har bir o'quvchi 2 guruh tarkibida ishtirok etdi: dastlab "o'z uyi" (birlamchi) guruhiga, keyin esa "ekspert" guruhiga birlashib, o'quv elementlarini mustaqil o'rganishadi. Ekspert guruhini tezda tashkil etish uchun o'quvchilar olgan axborotli paketlarda har bir mavzuga oid materiallar bir xil rangdagi qog'ozlarga yozilgan yoki rangli qalam bilan qog'ozning biror bir burchagi bo'yalgani ma'qul.

5.har bir guruhda 3 tadan 5 tagacha kishi (o'quvchilar soniga qarab) bo'lishi mumkin. har bir o'quvchi "o'z uyi"dagilarni va qayta uchrashish joyini aniqlab olishi kerak.

6.O'qituvchi o'quvchilarni "rangli" topshiriqlar asosida guruhga birlashishini taklif etadi va ular alohida mavzular bo'yicha ekspertga aylanadi. Misol uchun, "qizil"larni sinf xonasi oxirida, "ko'k"larni esa maktab yo'lakchasida uchrashishi belgilanadi. har bir ekspert guruhda 3 tadan kam o'quvchi bo'lmasligi kerak.

7.Guruhlarga axborotli paket tarqatiladi. har qaysi guruh turli xil materiallar to'plamini olishlari va ularni o'qishi, muhokama qilishi, aynan shu axborotlar bo'yicha ekspertga aylanishi lozim. O'quv materiallari bo'yicha "ekspert" bo'lishi uchun o'quvchilarda vaqt etarli bo'lishi kerak. Bu uchun agar materiallar murakkab va katta bo'lsa, ehtimol, bir dars to'liq talab qilinadi.

8.O'quvchilarga quyidagicha topshiriqlar beriladi:

- paketdagi materiallarni qunt bilan o'rganing va muhokama qiling;
- bir-biringizdan so'rang va o'quv materiallarini har biringiz tushunib olganingizga ishonch hosil qiling;

- o'z "uyingiz" guruhini o'qitish zarurligini hisobga olib materialning muhim o'quv elementlariga e'tiborni qaring.

9. O'quvchilarning o'z "uylariga" qaytishlarini iltimos qiling. har biri o'z "uyi"- guruhiga axborot beradi. SHaksiz, "uy" guruhida ekspert guruhlaridan bittadan o'quvchi bo'lish shart. O'quvchi o'rganib kelgan materiallarni o'z guruhi o'quvchilariga o'rgatish javobgarligini bo'yniga olish lozim. Bu jarayon o'quv materialining o'zlashtirish zarurligiga qarab yana bir soat davom etishi mumkin.

10.O'quvchilar bir-birlaridan axborotlarni o'rganishib bo'lishgach, o'qituvchi oldindan rejalashtirgan faoliyat turini o'tkazishi mumkin.

"MUNOZARA"



Bu metod yordamida o'quvchilarga muayyan muammo bo'yicha to'liq axborotlar etkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o'quvchilar ayovsiz "shturm" qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma'lumotlarni atroflicha o'rganadilar

Munozarani o'tkazish metodikasi.

1. Munozara olib boruvchi - boshlovchi (o'qituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga "aqliy hujum" topshirig'ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:

- "hujum"dan maqsad - muammo echimiga oid variantlarni mumkin qadar ko'proq taklif etish;

- o'z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo echimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g'oyalar umumiy fikrga zid bo'lsada, hech biri rad etilmaydi;

- boshqa ishtirokchilar g'oyalarini ham rivojlantiring;

- taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shug'ullanasiz.

3. Boshlovchi kotibini tayinlaydi va u yuzaga kelgan barcha g'oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so'zga chiquvchilar tartibi o'rnatiladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o'z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar berildi. Agar biror bir kishi tomonidan "aqliy hujum"ni o'tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi zudlik bilan muhokamaga aralashadi. Birinchi bosqich yangi g'oyalar paydo bo'lguncha davom etaveradi.

4. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri "charxlanishi" uchun qisqacha tanaffus e'lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. "Aqliy hujum" ishtirokchilari guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirgan g'oyalarni mustahkamlaydilar. g'oyalar guruh bo'yicha birlashtirilib, mualliflar ularni tahlil qilishga kirishdilar va natijada o'rta qo'yilgan muammoning echimiga tegishli bo'lgan fikrlargina ajratib olinadi.

Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

IZOH: Amerikacha munozara metodi turli shakllarda tashkil etilishi e'tirof etilgan. Bizning amaliyotda eng ko'p tarqalgan turi - bu "telemunozara" hisoblanadi yoki aniqroq aytadigan bo'lsak, jurnalist quddus A'zamning o'quvchilar bilan telemuloqoti ana shu metodning o'zginasidir.

Teleshou usulidagi munozara afzalliklari xususida ikki og'iz: bu shaklda tashkil etish bir vaqtning o'zida guruhda ma'ruza va munozara metodlarini qo'llash imkoniyatini beradi. 3-5 kishi bo'lgan guruh oldindan tanlangan mavzu bo'yicha boshqa qatnashchi (tomoshabin)lar ishtirokida munozara o'tkazadilar. Tomoshabinlar muhokamaga keyinroq qo'shilib o'z fikrlarini aytishadi yoki savol beradilar.

Teleshou shaklida tashkil etilgan munozarada berilgan mavzu bo'yicha turli fikrlarni birmuncha aniq ifodalashga imkoniyat tug'ildi. Albatta, bu erda muhokamaga jalb etilganlar suhbatga puxta tayyorgarlik ko'rishlari yoki shu soha bilimdonlari bo'lishlari bilan birgalikda asosiy mavzudan chetga chiqib ketmasliklari kerak.



Teleshouda har bir ishtirokchiga o'z fikrini to'liq bayon qilishlari uchun keng imkoniyatlar berishi lozim (3-5 min). Boshlovchi munozara borishini kuzatib boradi, agar belgilangan mavzudan chetga chiqish hollari ro'y bersa, darhol munozaraga aralashish shart.

"O'Z O'RNINGNI TOP".

Agar sinfda u yoki bu mavzu bo'yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning echimini topish mumkin. Undan ko'pincha darsning kirish qismida foydalanishadi va o'tilayotgan mavzuni o'rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi namoyish etiladi. Bu bir tomondan. Ikkinchidan, o'quvchilarga o'z fikrini bayon qilishga, muloqot ko'nikmalarini

qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Uchinchi, dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

1. Sinfning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat osildi. Ularning biriga "roziman", boshqasiga "rozi emasman" degan so'zlar yozilishi kerak. Plakatlarda ba'zi bir mavzuga oid savollar bo'yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilish mumkin. Masalan: "anjir gullaydi va meva tugadi", yoki "anjir gullamasdan meva tugadi".



2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. qaralayotgan muammo yuzasidan o'z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish zarurligi o'quvchilarga taklif etildi.

4. Bo'lingan o'quvchilardan o'z qarshilarini asoslash so'raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tish ruxsat etiladi va shu tariqa sinf o'quvchilarining hammasi jalb etildi.

5. Muammo bo'yicha fikrlar bildirilgach, o'quvchilar ichida munozara davomida o'z nuqtai nazarini o'zgartirganlar va boshqa guruhga o'tuvchilar bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ular o'z o'rnini o'zgartirish sabablarini asoslashi kerak bo'ladi.

6. Ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan o'quvchilarni aniqlash so'raladi.

“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH”.



Kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan sinfda o'rganishga imkoni tug'ildi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

QO'LLANISH USULI.

1. FAOLIYATNI TANLASH. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada o'quvchilar uni o'rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2.ZARURIY ASOS YARATISH. O'quvchilar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha ba'zi bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan egallagan bo'lishlari kerak.

3.GURUHNI SHAKLLANTIRISH. Odatda har bir guruhda 3-5 o'quvchi bo'ladi, (ehtimol, kam yoki ko'p bo'lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishili guruh tuzilgani ma'qul. Guruh o'lchovi masalaning muhimligi, sinfdagi o'quvchilar soni, o'quvchilarning bir-biri bilan konstruktiv holatda o'zaro harakatiga bog'liq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi, "getrogen" guruh tashkil etishidir. (jinsi, o'zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash o'quvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi. (Misol uchun, bir o'quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o'taydi va hokazo). Sinfni guruhlarga ajratish, hohish bo'yicha yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.

4.ANIQ YO'L-YO'RIQLAR KO'RSATISH. O'quvchilarga faoliyatni bajarish bo'yicha aniq va xajm jihatdan ko'p bo'lmagan tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarining ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta'minlanadi. O'quvchilar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib etganligi tekshirib ko'riladi.

5.QO'LLAB QUVVATLASH VA YO'NALTIRISH. O'qituvchi zarurat tug'lsa guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib to'g'ri yo'nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlarga ta'ziyq o'tkazilmaydi.

6.MUHOKAMA QILISH VA BAHOLASH. Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo'yicha axborot beradilar. Buning uchun har bir guruh o'z sardorini belgilaydi. Zarurat tug'lsa, faoliyat natijalari bo'yicha bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan yozilib borildi. Muhimi, guruhning echimining asoslanishini aniqlashtirib olishdi. Agar vaqt etarlicha bo'lsa, u yoki bu fikrni argumentlashda guruhlar bir-biriga savol ham berishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

XVI asrga kelib nashr ishlaridagi inqilobiy o'zgarishlar ta'lim tizimida "darsliklar"ni qo'llash imkoniyatini tug'dirdi. Kommunikasiya sohasidagi texnikaviy taraqqiyot esa sinf va xonadonlarni axborotli uzatish vositalari bilan jihozladi. Kompyuterlarning vujudga kelishi didaktik jarayonni yopiq boshqarish imkoniyatlarini tug'dirsa-da, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olmadi. SHaxsiy kompyuterlar texnikasining rivojlanishi psixologik-pedagogik bilimlar o'sishi bilan hamkorlikda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muammosini keltirib chiqarmoqda.

Akademik V.P. Bespalko tizim 8 - yakka tartibli bilish faoliyatini dasturli boshqarishga alohida urg'u berib "xalq ta'limi tizimining barcha bo'g'inlarida rivojlanishning yangi bosqichini ifodalaydi va o'quvchilarning sog'ligiga zarar etkazmagan holda zaruriy musbat siljishlarga olib keladi" deb ta'kidlaydi. O'zida aniq o'rnatilgan didaktik masalalar va pedagogik texnologiyalarni mujassamlashtirgan pedagogik tizim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, deb ta'riflanadi. Bu tizimdagi didaktik masalalarga qisqacha izoh beriladi. hozirda mavjud yakkalashgan pedagogik tizimlar - umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim - shaxsni tarbiyalash, ta'lim berish va takomillashtirishning yagona tizimiga aylanishi kerak. SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim barcha turdagi ta'limlarni yo'nalishlar bo'yicha integrasiyalashni taqoza etadi.

YUqorida ta'kidlanganlar eskirgan, biroq mustahkam marksistik tezis - texnik taraqqiyot davomida inson mehnatining o'zgarib turishi, shu boisdan keng umumiy va politexnik ta'limni bunday o'zgarishlar asosi sifatida joriy etish zaruratiga qarama-qarshidir. Bugun hayotning o'zi guvohlik beryapti: texnik taraqqiyot mumkin qadar yuqori kasbiy mahorat darajasini taqoza etadi. Unga erishish uchun bir mehnat turi doirasida faoliyatni maqsadli yo'naltirish va chuqur mutaxassislashtirishni talab etyapti, aksincha, doimiy uni almashtirishni emas.

Tashxislanuvchan tarzda o'rnatilgan maqsadli pedagogik tizim ochiq bo'lishi kerak, ya'ni o'rganishning har qanday bosqichida o'quvchi undan chiqib ketishi yoki qayta kirib kelishi mumkin. Bu esa aniqlangan maqsadga mos holda ta'lim mazmunini ilmiy asosda saralashga imkon beradi. Ta'lim mazmunini jamlashda o'quvchilarni asossiz yuklab tashlash va o'qituvchi o'qitishda inqirozga xos hodisalarni yuzaga chiqaruvchi oldingi amorf va ixtiyoriylik uni aniq loyihalash, o'qish yillari bo'yicha taqsimlash va dozalashga joy bo'shatib beradi. O'quv fanlari tizimi ortiqcha bo'lmasdan qat'iy uzviylikka va belgilangan mahorat bosqichida o'zlashtirishga olib keladi.

O'quv materialining belgili modellari
asosida ta'limni jadallashtirish

Donesk ochiq universiteti professori
V.F.SHatalov o'qitishni jadallashtirish

usulining ochilmagan qirralarini ko'rsatib berdi.

Bu texnologiyada:

Ta'lim maqsadlari:

- * Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
- * har qanday individual qobiliyatli bolalarning barchasini o'qitish.
- * Tezlashgan o'qitish (umumiy o'rta ta'lim hajmini 9 yilda o'qitish).

Prinsiplari:

- ko'p marta takrorlash, majburiy bosqichli nazorat, yirik bloklar bilan o'rganish; faoliyatning dinamik yaxlitligi, tayanch signallar, harakatlarning mo'ljalli asoslari;
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- insonparvarlik (barcha bolalar iqtidorli);
- o'quv vaziyatlarining tafovutsizligi, tuzatish uchun istiqbollarning ochiqligi, muvaffaqiyatning o'sib borishi;
- ta'lim va tarbiyaning uzviyligi.

Mazmunning o'ziga xos jihatlari:

- * O'quv material yirik hajmda kiritiladi.
- * Material bloklar bo'yicha joylashtiriladi.
- * O'quv material tayanch sxema-konspekt ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

V.F.SHatalov texnologiyasining **asosiy g'oyasi:** darsda o'quvchilarning yalpi faolligini ta'minlaydigan o'quv faoliyati tizimi yaratiladi. O'quv faoliyatining andazasi asosida tayanch konspektlari (signallari) - o'quv materialining kodlashtirilgan ko'rsatmali chizmalari yotadi.

Tayanch - mo'ljalli harakatlar asosi, bolaning ichki aqliy faoliyatini tashqi ko'rinishida tashkil etish usuli.

Tayanch signal - assosiativ ramz (belgi, so'z, rasm, chizma, shakl va boshqa) bo'lib, ma'lum fikriy ma'noni bildiradi.

Tayanch konspekt - qisqacha shartli matn ko'rinishidagi tayanchli signallar tizimi bo'lib, yaxlit o'quv materialining o'zaro bog'liq elementlari sifatida tushunchalar, faktlar, g'oyalar tizimining ko'rsatmali konstruksiyasini o'zida aks ettiradi.


Bu texnologiyada o'qituvchi mehnati asosiy mavqeni egallaydi va bu mehnatga o'quvchilar ayrim hollardagina (nazorat, maslahat, yordam) jalb etiladi. Tayanch signallari yordamida o'qitish jarayoni qator bosqichlardan iborat:

1. **Sinfda o'qitish:** mavzu o'qituvchi tomonidan odatdagidek sinf doskasi yonida (bo'r, latta yordamida) tushuntiriladi, keyin esa tayanch konspektlar asosida mavzuni tushuntirish takrorlanadi. O'quvchilarning o'z konspektlari ustida mustaqil ishlashi ta'minlanadi va frontal tarzda bilimlar mustahkamlanadi.

2. **Uyda mustaqil ishlash:** tayanch konspektidagi kodlashtirilgan o'quv materiallarini o'quvchi darslik yordamida oydinlashtiradi.

3. **Nazorat va baholash:** mavzu bo'yicha o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalari tashqi nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish yordamida tekshiriladi. **Nazorat shakli:** tayanch konspekti bo'yicha yozma, mustaqil ish, og'zaki so'rov; juftli o'zaro nazorat, guruhli o'zaro nazorat.

V.F.SHatalov bo'yicha o'qitishni tashkil etish texnologiyasi



Mualifning boy tajribasi - "tayanch signallari varaqasi" asosida tashkil etilgan o'quv-bilish faoliyati o'quvchilarning yuqori ko'rsatkichga erishishini shubhasiz ta'minlaydi. O'quvchi olgan baho bilimlarni hisobga olish varaqasida qayd etiladi va u hohlagan vaqtda qayta tayyorlanib o'z bahosini tuzatishi mumkin. Demak, bu texnologiya ochiq istiqbolli prinsipni ta'minlagan holda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida nizo tug'dirmaydi.

2-bob. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atdan o'quv jarayonini texnologiyalashtirish.

Respublikamizda majburiy to'qqiz yillik (I-IX sinflar) umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'limni (I-IV sinflar) qamrab oladi hamda o'quvchilarning

fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini ta'minlaydi. Umumiy o'rta ta'limning yangi tizimini, uning mazmunini shakllantirish maqsadida «ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash» zarur bo'ladi.

Milliy dasturda belgilangan bu maqsadni amalga oshirish yuzasidan Xalq ta'limi vazirligida bugungi kunda keng ko'lamda ishlar olib borilayapti. Jumladan, Respublika ta'lim markazi tasarrufida «Ilg'or pedagogik texnologiyalarni aniqlash va ommalashtirish» Markazining tashkil etilishi hamda o'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida «Yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari» laboratoriyasining faoliyat ko'rsata boshlagani jamoatchilik tomonidan ta'lim sohasidagi «inqilobiy burilish» deb baholanmoqda.

Bugungi kunda o'quv jarayonini texnologiyalashtirish, aytish mumkinki, o'zining birinchi – boshlang'ich davrini boshdan kechirmoqda. Bu jarayon tezkor sur'atlar bilan bormoqda. Ayniqsa 80-yillarning o'rtalarida rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida keng quloch yoygan turli ishbilarmonlik o'yinlari ko'rinishidagi darslar (dars-sud, sud-auksion, dars-matbuot konferentsiya)dan foydalanish ommaviy tus olmoqda. Barcha ishbilarmonlik o'yinlari – bu modelli o'qitish metodining joriy etilishidir. Bu nima degani? Gap shundaki, o'quvchi o'z rolini ijro etishi bilan ma'lum bir kasbiy faoliyatni modellashtiradi. SHubhasiz, bunda boshlang'ich shartlarni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirib oladilar. Bu erda birgina darslik etarli emas, o'quvchilar rolini uddalashi uchun qo'shimcha manbalardan axborotlarni to'playdilar.

Mavzu: «Qush, harvon hamda boshqalarning tasvirini chizish»

Bu darsda o'rganamiz:

1. Insonning tabiatga nisbatan munosabati qanday bo'lgan.
2. «Tabiat tiriklik sharti» degani nima.
3. Tabiatni qo'riqlash yo'llari qanday.

«Aqliy hujum»

Nima uchun tabiatni qo'riqlash kerak?

Tabiatga befarq qaragan holda mamlakatimiz rivojlanishi mumkinmi? Jamiyatning borliqqa munosabati haqida quyidagi xalq maqollari mavjud, o'ylang va o'z fikrlaringizni bildiring.

1. Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan.
2. YAxshi gapirsang ilon inidan chiqadi.
3. Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda.
4. Yerni boqsang, yer seni boqadi.

«Rolli o'yin»

Jihozlar:

Sudya kostyumi



Maslahatchilar kostyumi



qushlar chuchelalari



hayvonlar chuchelalari



Gerbariylar



Boshlovchi o'qituvchi: Salom do'stlar! Salom tabiat! Salom o'rmonlar va daryolar, ko'llar, dengizlar, tog'lar va dalalar! Salom qushlar: bulbullar, boyqushlar, chumchuqlar va kabutarlar! Salom hayvonlar: yo'lbarslar, sherlar, fillar, bo'rilar!

Bolalar! Agar inson har kuni nafaqat tanishlari bilan, balki o'zini o'rab to'rgan barcha tirik jonzorlar bilan salomlashganda edi, biz ko'rish mumkin bo'lmagan hayvonlar va o'simliklar er yuzida hano'zgacha yashar edilar. Afsuski, insonlar ularning yo'qolishida aybdordirlar.

Bugun ham yo'qotishlar davom etayapti. Buning sabablari turlicha: kimdir hayvonlarni (mo'ynasini, go'shtini, terisini va boshqa) sotib boylik orttirish maqsadida, kimlar lazzatlanish uchun, kimdir o'ylamasdan o'simliklarni tomiridan yulib oladi, tayoq bilan qurbaqani o'ldiradi, qushlarga tosh otadi.

Afsuski, hayvonlar va o'simliklar gapira olmaydilar. Agar gapira olishsa-chi? Keling, xayolga berilib ko'raylik.

Biz bugun **ekologik sud** o'tkazamiz: shunday qilib inson ustidan sud. Sud jarayoni ishtirokchilari belgilandi.



Sud raisi – Zubr. Bolalar, balki bu hayvon to'g'risida eshitmagandirsiz. Lekin u menda shunday e'tibor va hayajonlanish tug'diradiki, ularni siz bilan baham ko'rsam

deyman. Vaqtlar bo'lganki, butun hayot zubrlar qiliga osilib turarkan. Ularni ayovsiz qirdilar.

Bosh ayblovchi – Tur. Nima uchun turlar bosh ayblovchi deb tanlandi? Gap shundaki, zubrning oxirgi turi XVII asrda o'ldirildi.




Inson himoyachisi – advokat - It.

Barcha-barchasi o'z joyiga o'tiradilar. o'quvchilarning o'yin faoliyati boshlanadi.


Sudya. Diqqat, sud jarayoni boshlandi. So'z bosh ayblovchiga.

Tur. Menga gapirish qiyin. Men-ku allaqachon er yuzida yo'qman, biroq qator hayvonlar va o'simliklar men kabi yo'q bo'lib ketishidan xavotirdaman. Men bir narsaga tushunmayman: axir insonning o'zi ham tabiat mahsuliku? Uning fikricha, xavfli sanalgan tirik mavjudotlar ustidan o'lim hukmini chiqarish kerak emish. Muvozanatni yo'qotgan tabiatni tiklash og'ir, ba'zan imkoniyat butunlay yo'qligini inson tushunib etmaypti.



Men insonni zebra kagdek husnkor jonzotni yo'qotgani uchun aybdor deb bilaman. Odamlar Afrikani o'zlashtira boshlagan davrida zebralarni «mollar uchun yaylovlarni egallab yotibdilar» deb qira boshladilar va shu tarzda «quyosh toychasi» deb nomlangan zebralardan nom-nishon qolmadi.


Faqat zebralarnimi? hozir Afrika maydonlarida ovrupaliklar kelgunga qadar yashagan hayvonlarning 10 foizigina qoldilar.



Bizonlarchi? Asrimiz boshlanishida Amerikada bizonlar qolmadi hisob. Umr 70 yillik onga yaqin edilar. Bir yilda ovchi iki mingga yaqin bizonlarni o'ldirdi.

Yana bir misol – jahongashta **kabutar**. Bu qushning oxirgisi asrimiz boshida hayvonot bog'ida o'ldi. Go'shti juda mazali bo'lgani uchun bu qushlar qirib tashlandi.

Bundan 250 yil oldin odamlar dengiz sigirini aniqladilar va 25 yildan keyin uning oxirgisini yo'qotdilar.



Floralar taqdiriga nazar tashlaylik. Livan kedri. qachonlardir bu daraxt hamma joyda o'sgan, lekin ularni Misrdan keltirilgan arqonlarga,

oltinga va boshqa mahsulotlarga almashtirishni xush ko'rdilar. Natijada hozir faqat Livandagina 400 tup kedr saqlanib qoldi.

Inson qadami etgan joyda, har doim u yoki bu tabiat ehsonini bo'zdi yoki o'ldirdi.

(insonga murojaat qiladi) g'ozir nima qilayapti? Atrofga boqing: siz o'z harakatingiz va tushunmasligingiz qurbon bo'lyapsiz. havolar, daryolar, ... zaxarlangan.

Boqing! To'xtang! o'ylab ko'ring!

Zubr. hurmatli Tur, sizningcha inson qanday jazoga loyiq?

Tur. U o'z-o'zini jazolaydi va jazolamoqda. qolaversa, jazoga nisbatan fikrini keyinroq aytaman.

Zubr. So'z endi himoyachiga.


It. Men hurmatli ayblovchining holatini tushunaman va u bilan hamfikrdaman. Inson o'zini o'zi jazolayapti. Biroq menga ishoning, inson ehtiromga loyiq.

Ayblovchi. Ehtiromga?

It. ha, ha! Kim, biz uy hayvonlari kabi insonni yaxshi biladi?

Ayblovchi. Kulgili! Siz inson bilan qalin bog'langansiz. Sizga uni ayblash qiyin, aksincha, kim sizga osh-non, suv beradi?

It. Bilasizmi, birinchi marta qo'riqxonaga 1832 yil aynan tabiatga kuchli qiron keltirilgan joyda – Amerikada tashkil etilgan.



Sudya. Endigi so'zni himoyachilarga va aybdorlar tomonidan bo'lgan guvohlardan eshitamiz.

So'z-havoga.

Havo. Bir yil badalida atmosferaga 5 milliard tonna uglekisli gazlar chiqarishadi. Natijada ozon qatlami yupqalashmoqda, ozonda tirqishlar paydo bo'lmoqda. Bu tirqishlarga rak kasalliklarini keltirib chiqaradigan ultrabinafsha nurlari tushadi, qisqartirib kamaytiradi.

O'rmonlar yo'qolmoqda, asosan, tropik mintaqadagi ko'p qatlamli o'rmonlar. Rossiyaning aralash o'rmonlari noto'g'ri melioratsiya natijasida qurib ketadi. Demak, havoga kislorod yetkazish miqdori kamayyapti. Agar shunga qora va kimyo sanoatidan, zavod-fabrikalaradan, transportlardan chiqayotgan gazlarni qo'shimcha tarzda qo'shilsachi?



Sudya. Guvoh - suv.

Suv. Olimlarning hisob-kitobiga qaraganda bir yilda dunyo bo'yicha suv havzalariga 10 ming vagonga yuk bo'ladigan zararli chiqindilar kelib tushmoqda. hatto Arktika mo'zliklaridan kir poroshok topildi. Inson «faoliyati» natijasida Volga, Dunay, Reyn

kabi daryolarda cho'milish mumkin bo'lmay qoldi. Sibir daryolarida cho'milish mumkin bo'lmay qoldi. Sibir daryolarida o'rmonlarning cho'kishi va notoza oqimlarning qo'shilishi natijasida inson va hayvonlar sog'ligiga zararli bo'lgan mikroorgnalar paydo bo'ldi.

Sudya. Guvoh - tuproq.

Tuproq. Tuproq juda sekin paydo bo'ladi, yuz va ming yillar kerak bo'ladi. Biroq uni tezda emirish mumkin. Keyingi 100 yilda erda hosildor tuproqning 1,4 qismi bo'zildi. Cho'l zonalari va quruq erlarni o'zlashtirish savodsizlarcha olib borildi...



Inson tog'-tog' ximikatlarni ishlata boshladi: pestitsidlar, nitratlar, DDT. Erlarni sho'rlanish, tuproq va odamlarning zaharlanishi yuz berdi...

Sudya. So'z himoyachiga.

It. ha, argumentlar etarlicha. Axir insonga suv kerakku: bir tonna po'lat olish uchun 150 t suv, bir tonna qog'oz olish uchun 250 t suv kerak. inson yonida oqar suvlari bo'lmagan korxonalar qura boshladi. U erda iflos suvlar tozalanadi va qayta foydalaniladi. Inson atmosferaga chiqarilayotgan tashlandiqlarni ham kamaytiradi.

Angliya va YAponiyada aerozol tayyorlash ta'qiqlandi. Inson mashinadan chiqayotgan zaharli gazlarni kamaytirmoqda. Gaz, elekt, quyosh batareyasida ishlaydigan dvigatelli mashinalar chiqrila boshlandi.

Sudya. Navbatdagi guvoh - Boyo'g'li.



Boyo'g'li. Barcha turkumdagi hayvonlar jozibador. Biroq «tabiat shaydolari» uchun eng qiziqarlisi biz qushlarmiz. Kimdir bizni qafasga solishni hohlaydi.kimgadir mo'ynamiz, kim uchun go'sht hisoblanamiz. Men bechora boyo'g'lini inson baxtsiz qush deb hisoblaydi. To'g'ri biz qo'rqinchili qichqaramiz, biroq hasharotlarni yo'qotib katta naf ham keltiramiz... Keyingi 150 yil ichida er yuzidan 150 qush turlari yo'qoldi.

Sudya. Biz barcha guvohlarni eshitdik. Bulardan keyin inson bilan nima qilamiz.

Advokat: Barcha sud jarayonlarida aybdorga so'z berildi. Insonni eshitamiz.

Inson. Men o'zimni oqlashga harakat qilmayman. Sizlardan meni kechirishingizni so'rayman, bundan sizlarga engil bo'lmasdi.

It. Men nima demoqchiman eshiting. ha, insonning tabiatga bunday munosabatni jinoyat deb aytish mumkin. Biroq faqat insongina biror bir holatni to'zatishi mumkin. Ayni shu inson qizil kitobni to'zdi. Inson qo'riqxonalar qilyapti va ularni qo'riqlayapti. Bizning baxtimizga, odamlar ham Er yuzida har xil, kimga qanday ekanligi to'g'risida Siz hurmatli, Zubra bilishingiz kerak emasmi?

Sudya. ha, inkor etmayman. Odamlar tufayligina menga yashab qolish nasib etdi.

Tur. Biroq insonlar tufayli yo'q bo'lib ketish shunga ham oz fursat qolgan edi.

Apollon (kapalak): qiziq holat? Biz u yoki bu holatda inson bilan bog'liq ekanmizda?



Sudya. Afsuski, bog'liqmiz.

Gullar. qo'rqinchli! qo'rqinchli» biz o'lamiz.

Mushuk. Men uy-hayvoni sanalsamda, sizlarning fikringizga qo'shilaman: xavfli. Meni necha martalab uydan haydashdi, mendan qutulish maqsadida qaerlarga tashlab ketmadi deng.



Tur: Ko'rdingizmi, himoyachilar ham ayblovchiga aylanishyapti.

Sudya. Biz qanday qaror qabul qildik? (maslahatlashadi).

Ish yuzasidan materiallarni chuqur o'rganib quyidagilar o'rnatildi: hayvonlardan har beshtadan biri, amfbiylardan to'tdan biri, faunamizdagi qushlardan har beshtadan biri bugun xavf ostida. 25000 turdagi oliy o'simliklar er yuzida butunlay yo'qolish chegarasida. Keyingi 60 yil ichida planetada 77 hayvonlar turi, 26 turdagi qushlar yo'qoldi...

Qaror – Mayli, inson hali to'zatisht mumkin bo'lganlarni to'zatsin.

Agar to'zata olmaschi? Unda inson zoti ham tur qatori yo'qoladi. Chunki u bizlarsiz, toza havosiz, toza suvsiz va ko'ngilni boshqalarsiz yashay olmaydi.

Qurbaqa. Demak, inson o'zini-o'zi o'lim jazosiga hukm qilar ekanda.

Sudya. SHunday bo'lyapti.

Hammasi. qanday dahshat.

o'qituvchining ta'kidlashicha bu «dars-sud» stsenariysida sinfdan tashqari tadbirlarda foydalanish yaxshi samara berar ekan. Uning mazmunidan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi tabiat muhofazasiga oid katta hajmdagi materiallarni qo'shimcha adabiyotlardan to'plangan va ulardan o'quvchilar o'rtasida rollarni taqsimlashda o'z o'rnini foydalana olgan. o'yinli didaktik jarayon to'g'ri loyihalanganligi uchun «sud-dars» o'quvchilarda kuchli motiv uyg'otadi va o'quv materialini o'zlashtirish samarali kechadi. Bundan tashqari o'quvchilar qush, hayvon va parrandalarning tasvirini chizayotganda rolli o'yinlar bolalar hayolida gavdalanib, tabiat jonzodlariga mexr-muxabbat tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan tasvirlar oq qog'oz yuzida aks etadi

Hozirda biz yashab turgan jamiyatda ekologik muammo jahon miqyosida eng global muammoga aylanayotgan bir paytda tabiatni asrashga oid zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida roli o'yinlar ishlab chiqilib uni tasviriy san'at darslarida keng qo'llash samarali natija beradi.

Ma'lumki, har qanday pedagogik tajribani tavsiflash uni pedagogik tizim elementlari bo'yicha tahlil qilish demakdir. S. Abulfayzov tajribasining mohiyatini ifodalash uchun aniq o'rnatilgan didaktik masalalarni echa oladigan ma'lum texnologiya ko'rinishidagi pedagogik tizimni loyihalash kerak. Bu shunchalik oddiy ish emas, chunki tajriba muallifi ham bu loyiha bo'yicha har doim o'ziga hisob bera olmaydi. Natijada PTning ayrim bosqichlari kuchsiz ishlanadi, ular o'rtasidagi chegara esa "qorong'ulashadi". quyida S. Abulfayzov hamkorligida tayyorlangan va amaliyotda sinalgan PT loyihasini keltiramiz:

2.1. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini muammoli vaziyatlar hosil qilib o'qitish

Bugungi kunda o'qituvchining vazifasi-o'quv jarayonini o'quvchilarda faqat reproduktiv fikrlashni emas, balki, ijodiy fikrlashni ham shakllantiradigan yo'sinda tashkil qilishdir. Bunda o'qitishning muammoli usuli qo'l keladi. Muammoli ta'lim-bu o'quv materialini o'quvchi ongida ilmiy izlanish asosida bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rgatish uslubidir. O'quvchining fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va

ular bolani ob'ektiv ravishda izlanishga va mantiqiy to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishga dav'at etadi.

MUAMMO-ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub'ektiv shaklidir. U muammoli vaziyatda, ya'ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida ob'ektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat.

MUAMMOLI VAZIYAT-o'quvchining ma'lum psixik holatidir. Bunday holat ma'lum topshiriqlarni bajarish (masala echish, savolga javob topish) jarayonida ziddiyatlarni anglash tufayli vujudga keladi. Ana shu ziddiyatni anglash o'quvchilarda ishni bajarishning usuli yoki shartlari to'g'risidagi yangi bilimlarni izlash ehtiyojini uyg'otadi.

Muammoli vaziyat muammodan farqli ravishda unga o'quvchini jalb etishdan iboratdir. Didaktika va psixologiyaga doir adabiyotlarda muammoli vaziyatlarning tiplarini tasniflash asosida ularning yaratishning eng muhim yo'llari va usullarini ishlab chiqilgan. M.Maxmutov muammoli vaziyat tiplarini ta'riflash bilan birgalikda ularning yaratishning qo'yidagi asosiy usullarini ifodalaydi.

1. O'quvchilarning nazariy tushunchalarini talab qiladigan hodisalarga, faktlarga, shuningdek, hodisalar o'rtasidagi tashqi nomuvofiqliklarga duch kelishi ularni ana shu nomuvofiqliklarni tushuntirishga intilishga undaydi va bu intilish bilimlarni faol o'zlashtirishga olib keladi.

2. O'quvchilar o'quv yurti uyida yoki ishlab chiqarishda amaliy topshiriqlarni bajarayotganda vujudga keladigan ta'limiy va hayotiy vaziyatlardan foydalanish. Bunday holatda muammoli vaziyatlar o'quvchining o'z oldiga qo'yigan amaliy maqsadga mustaqil ravishda erishish uchun harakat qilishda muammoni o'zlari vujudga keltiradilar.

3. Hodisani tushuntirishga yoki uni amalda qo'llash yo'llarini izlashga doir ta'limiy-muammoli topshiriqlar qo'yish.

4. O'quvchini hayotiy tasavvurlar bilan faktlar va hodisalarni tahlil qilishga qiziqtirish.

5. Taxminlar, xulosalarni bayon qilish va ularni tajribalarda tekshirish.

6. O'quvchilarni faktlar, harakat va hodisalarni taqqoslashga hamda qarama-qarshi qo'yishga da'vat etish.

7. O'quvchilarni yangi faktlarni umumlashtirishga, taqqoslashga rag'batlantirish. Bunda, odatda muammoli vaziyat vujudga keladi, chunki taqqoslashda yangi faktlarning qandaydir alohida, tushuntirib bo'lmaydigan belgi va xususiyatlari aniqlanadi.

8. Fanlararo aloqalarni tashkil etish. Ko'pincha o'quv material muammoli vaziyatni vujudga keltirishni ta'minlaydi. Bunday holat boshqa o'quv fanlaridagi o'rganilayotgan materialga bog'liq fakt va materiallardan foydalanish lozim.

SHunday ekan ta'lim jarayonini o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida ongli, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan faoliyat deb qarash to'g'ridir. Uning tarkibiy qismlari: maqsadga yo'nalganlik, ehtiyoj-intilish, mazmun, faoliyat, jarayon, nazorat-to'zatishtish va natijalarni baholashdan iborat. Muammoli darsda yangi o'rganilayotgan qonun-qoidaga oid faktlar to'plash, ularni taqqoslash va tahlil qilish, bilimlarni o'rganish va mustahkamlash parallel ravishda olib boriladi.

Ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir o'qituvchi dars jarayonida muammoli ta'lim usulini qo'llash uchun, avvalo, quyidagi ketma-ketlikni aniq bilib olishi zarur:

- muammo qo'yish;
- muammoni xarakterlovchi sharoitni o'rganish;
- qo'yilgan muammoni hal qilish;
- topilgan echimning to'g'riligini asoslash;
- muammoning echimini izlash va hal qilish jarayonida paydo bo'lgan yangi bilimlarini anglash;
- muammoni tizimlash, motivlashtirish va umumlashtirish;
- muammo echimini o'rganish, uning yanada ixcham va qulay yo'llarini izlash.

Ta'lim texnologiyasi bo'yicha qilinadigan barcha ishlar o'ziga xos amaliy asosga ega. Ta'lim loyihasini tayyorlash o'qituvchi va o'quvchining kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyatini oldindan belgilaydi.

O'qituvchi ta'lim loyihasini amalga oshirishda, eng avvalo, o'quvchining fikrlash faoliyatida mantiqiy to'g'ri, ilmiy xulosalarni chiqarishga va o'zlashtirishga rag'batlantiradigan muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishni nazarda tutmog'i lozim.

Aslida, har qanday ta'lim o'quvchi uchun muammodir. CHunki ta'lim olish jarayonida o'quvchi unga hozircha noma'lum bo'lgan narsa bilan tanishadi hamda ma'lum bir tushunchani egallaydi. SHunday ekan, o'qituvchi o'quvchilarning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlarni yaratish orqali ularda har narsani bilishga havas, mustaqillik, o'qishga qiziqish va ijod qilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarini tarbiyalab borishi lozim.

Muammoli vaziyatni vujudga keltirish, undan foydalanish usullarini yaratish, ta'lim tizimining har bir bosqichida o'rganilayotgan fanlar, ularning xususiyatlari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yaratiladi. Bir xil yoshdagi o'quvchilarning jismoniy va aqliy xususiyatlariga ko'ra tushunishi, fikrlashi, ishni bajarishi qobiliyati turlicha bo'ladi.

SHuning uchun muammoli vaziyatni yaratishdan avvalo o'quvchini ruhiy jihatdan puxta tayyorlash zarur.

Psixologlarning ta'kidlashicha, fikrlash doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan va ziddiyatdan boshlanadi (S.O.Rubinshteyn). dars jarayonida muammoli vazifalarni hal etishda aniq vaziyatlarni tahlil qilish, baxolash va keyinchalik qaror qabul qilishga e'tibor berish lozim.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish usullarida asosiy etakchi funktsiyalar:

- o'rgatuvchi: bilimlarning dolzarbligini aniqlashga asoslanadi.
- rivojlantiruvchi: tahliliy tafakko'rni, alohida faktlar orqali hodisa va qonuniyligni ko'ra bilishni shakllantiradi.
- Tarbiyalovchi: kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi.

Demak, muammoli vaziyat o'quvchilarning mustaqil ishlarini takomillashtirishga asoslangan bo'lib, ularda ilmiy tushunchalarni, amaliy ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish, boshqa materiallarni chuqur va mantiqiy tahlil qilishga asoslangandir. Agar, siz muammoli dars o'tishni istar ekansiz, avvalambor, muammoli vaziyatlarni yaratish yo'llarini bilishingiz kerak bo'ladi. Bunda quyidagilarga e'tibor bering.

- aniq savollar qo'yasiz: umumlashtirishga, isbotlashga, aniq mantiqiy fikr yuritishga undovchi:
- o'quvchilarga fikrlashga undovchi savollar berilib, uning echimini mustaqil ravishda o'zlariga topishni taklif etasiz;
- nazariy va amaliy topshiriqlar orqali o'quvchilarni taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga, berilgan faktlarni solishtirishga da'vat qilasiz;
- bir savolga turli nuqtai-nazardan qarash lozimligini tushuntirasiz va berilgan javoblarni asoslashga undaysiz;
- o'quvchilarga hodisalarni turli vaziyat orqali ko'rib chiqishni taklif etasiz hamda amaliy ish jarayonida duch keladigan qarama-qarshiliklarni ma'lum qilasiz.

SHunday qilib, muammo hech qanday tayyorgarliksiz, to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmaydi. U butun darsda bosh masala sifatida bayon qilinadi. Qo'yilgan muammolarning murakkabligi tabiiyki, o'quvchilar saviyasiga mos bo'lishi kerak. Tanishtiriladigan materiallar uncha katta bo'lmasligi lozim. Materiallarning, xususan, masalalarni o'quvchilarning o'zlari hal qila olsalargina, ularning hal qilishdagi salohiyati ortadi.

Muammoli darslarda mavzuga oid beriladigan savollar shunday tuzilishi lozimki, o'quvchi savolga javob berishda kamchiliklarni to'ldirsin, noma'lumni aniqlasin, o'xshashlik va farqini topsin, fikrini ifodalasin. Muammoli vaziyatni hosil qilish tadqiqot, evrestik suhbatlar,

namoyish etish, muammoli bayon qilish, reproduktiv metodlardan foydalangan holda tashkil etiladi.

Tadqiqot metodida o'quvchilarni izlanishga, o'zlari uchun yangi muammoni hal qilishga yo'naltiriladi va u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Fakt va hodisalarni kuzatish va o'rganish;
2. Tushunarsiz hodisalarni oydinlashtirish;
3. Gipotezani olg'a surish;
4. Reja to'zish va uni amalga oshirish;
5. Echimni topish va uni tekshirish;
6. Bu metoddan og'zaki va matbuot so'zlari, ko'rsatmali vositalar, amaliy ishlar, yozma va grafik ishlar, laboratoriya mashg'ulotlarida foydalaniladi.

Evrestik metod o'zaro bog'liq bo'lgan savollardan suhbatni tashkil etish yo'li bo'lib, unda o'quvchi o'z bilimlaridan foydalanib, qolmay, balki izlanishlarni amalga oshirishi lozim.

Muammoli bayon etishning mohiyati o'quvchi muammoni qo'yib, uni o'zi hal qilishi va echimning ahamiyatini o'quvchilarga tushunarli ziddiyatlar orqali ko'rsatishdan iborat.

Demak, muammoli topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini kuchaytiradi.

Muammoli darsni tashkil etishning texnologik xaritasi		
Ish bosqichlari tayyorlov bosqichi.	O'qituvchi faoliyati. Darsni tashkil etish mazmunini, qo'yiladigan muammoli vaziyatni hamda ushbu vaziyatning o'quvchilar tomonidan hal qilinish yo'llarini, ta'limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi maqsadni, kutilayotgan natijani va baholash mezonini belgilaydi.	<i>O'quvchi faoliyati</i>
Tashkil etish bosqichi, ya'ni muammo qo'yish, da'vat	Dars maqsadini bayon qiladi, mavzuga oid muammoli vaziyat hosil qiladi (muammoli savollar qo'yadi) o'quvchilarga qo'yilgan muammoni echishga doir ko'rsatmalar va yo'llanmalar beradi va ish natijalarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Dars maqsadini va belgilangan muammoni yozib oladilar. Muammoli vaziyat va muammobayon etilgan materiallar bilan tanishadilar va uni hal

bosqichi		qil yo'llarini o'ylaydilar
Mustaqil ishlash jarayoni, muammonin g echimini topish, anglash va fikrlash bosqichi	Qo'yilgan muammoni o'quvchilarning to'g'ri tushunishlari, ularni muammoga yo'llash maqsadida munozara va aqliy hujum, klaster, kubik, zigzak usullaridan foydalanadi va yakka, ikkita hamda guruh bilan ishlashlarini tashkil etadi. O'quvchilarni faollashtirish maqsadida bir guruhdan ikkinchisiga o'tish yo'llarini amalga oshiradi.	O'quvchilar berilgan muammolarni yakka tartibda, ikkita bo'lib yoki guruhlarga bo'lingan holda echishning turli mikoniyatlarini muhokama qiladilar, tahlil qilib eng qulayliklarini topadilar va bir fikrga keladilar.
Natijalarni taqdim etish	Diqqat bilan tinglaydi, o'quvchilarning fikrlarini, tushunchalarini aniqlashtiruvchi savollar beradi.	Natijalarni bayon qiladilar va boshqa guruhlar taklif qilgan natijalar bo'yicha fikr yuritadilar va savollar berish orqali tushunchalarini mustahkamlaydilar.
YAkunlash va umumlashtirish bosqichi	Belgilangan muammoni echish usul va yunalishlarining eng asosiylarini ko'rsatib, ko'pchilik fikriga mos kelganlarini alohida ta'kidlaydi. O'quvchilarni qanchalik muammolarini echishdagi intilishlari, fikrlashlari va echimini topishini inobatga olingan holda baholaydi.	<i>O'qituvchining xulosalarini tinglaydi, yozib oladi. Guruhlar bir-birlariga va o'z-o'zlariga baho qo'yishlari ham mumkin.</i>

2.2. Tasviriy san'at darslarida tabaqallashtirib o'qitish yo'llari

Mazmuni:

1. Tabaqallashtirilgan ta'limning mohiyati.
2. Uning ijobiy va salbiy jihatlari.
3. Tabaqallashtirilgan ta'lim turlari
4. Ta'limning bu turiga bo'lgan talablar.
5. Tabaqallashtirilgan ta'limda pedagogik va psixologik tashhis.
6. Tabaqallashtirilgan ta'limga doir tashkiliy, moddiy-texnikaviy tayyorgarlik.
7. Tabaqallashtirilgan ta'lim mazmuni.
8. Tabaqallashtirilgan ta'lim metodikasi.

Umumta'lim maktablaridatasviriy san'at darslari samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali turlaridan biri hisoblangan tabaqallashtirilgan ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabaqallashtirilgan ta'lim o'quvchilarni individual tarzda, shuningdek, guruhlariga ajratib o'qish, ularning mustaqil ishlarini to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali barcha o'quvchilar bilim va malakalarini dinamik rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, layoqatini hisobga olib, mashg'ulotlarni tashkil etish orqali dars samaradorligini oshirishiga erishadi.

Ma'lumki, barcha o'quvchilarning qobiliyatlari, fan qiziqishlari, psixologik va estetik xususiyatlari turlicha bo'lganligi sababli berilayotgan bilimlar va shu asosida tashkil etilayotgan metodika hamma o'quvchilarga bir xil ta'sir ko'rsatmaydi. Natijada, ular o'quv materiallarini bir xil o'zlashtirmaydilar. Bunda o'quvchilarga qanday pedagogik ta'sir ko'rsatilganda kuzlangan maqsadga erishish mumkinligi muammosi paydo bo'ladi. Uning samarali yo'llaridan biri ta'limga tabaqallashtirilgan yondoshuvdir.

Ayrim pedagog olimlarning asarlarida tabaqallashtirilgan ta'limning mohiyati, uning ilmiy asoslari chuqur tahlil qilib berilgan, ayrim ilg'or o'qituvchilar bo'sh o'zlashtiruvchi yoki qoloq o'quvchilar bilan individual ishlar bo'yicha tajriba to'plaganlar.

Pedagogika nazariyasi pedagog olimlar tomonidan tabaqalashtirilgan ta'limni ikki turi qayd qilinadi:

1. Darajali tabaqalashtirish.
2. Ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish.

Darajali tabaqallashtirish ikki turga bo'linadi:

1. Individual ta'lim. Bunda o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab har bir o'quvchi bilan alohida-alohida ish olib boriladi.
2. Guruhli ta'lim. Bunda o'quvchilarni qobiliyati va imkoniyatlariga qarab ularni ikki va undan ortiq guruhlariga ajratib o'qitiladi.

Ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish esa u yoki bu fanni chuqur o'rgatish, o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bular qatoriga tasviriy san'atni chuqur o'rgatadigan fakultativlar, to'garaklar kiradi.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida tasviriy san'atdan tabaqalashtirilgan ta'limning quyidagi turlari mavjud:

- tabaqallashtirilgan guruhlar ta'limi;
- individuallashtirilgan ta'lim.

Bu yo'nalishlar ham darajali, ham ixtisoslashtirilgan bo'lishi ham mumkin. Ko'p yillardan buyon pedagogik amaliyotda boshqa fanlar qatori tasviriy san'atdan ixtisoslashtirilgan maktablar va sinflar, fakultativ kurslar faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Tabaqallashtirilgan ta'lim haqida fikr yuritganda avvalo uni ham ijobiy va salbiy jihatlari haqida etarli tasavvurga ega bo'lishlik nihoyatda muhim. Darajali tabaqallashtirib o'qitishning ijobiy jihatlari haqida to'xtalganda quyidagilarni qayd qilish lozim. Bunda:

1. Auditoriyadagi barcha o'quvchilar dastur materiallarini o'zlashtirishga erishadilar.
2. Auditoriyadagi barcha o'quvchilarning bilim va malakalarida, ijodiy ishlarida o'sish kuzatiladi va u o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.
3. Auditoriyadagi barcha o'quvchilarning faolligi oshadi. CHunki, past o'zlashtiruvchilar guruhidagi har bir o'quvchi yuqori o'zlashtiruvchilar guruhiga o'tishiga harakat qiladi. YUqori o'zlashtiruvchilar guruhidagi o'quvchilar esa past o'zlashtiruvchilar guruhiga tushib qolmaslikka harakat qiladilar.
4. O'quvchilarni qobiliya va imkoniyatiga qarab bilimlar berilayotganligi sababli, ular tomonidan o'quv yuklamalarini o'zlashtirishda zo'riqish hollari ro'y bermaydi.
5. Auditoriyadagi iqtidorli o'quvchilarning chuqur va atroflicha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlari ham qondiriladi.

6. Tabaqallashtirilgan ta'lim uni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirishga yordam beradi.

Ko'pchilik mutaxassislar o'quvchilarni (past, o'rta, yuqori) o'zlashtiruvchi o'quvchilar guruhlariga ajratib o'qitishning ma'qullagan holda, uni yuqori, shuningdek, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar faoliyatida salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ham qayd qilishadi. Xususan, ular yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilarda manmanlik, boshqalardan o'zlarini ustun qo'yish yoki ularni mensimaslik, o'ziga ortiqcha baho berish, boshqalar bilan qo'pol muomalada bo'lish kabi xislatlarda kuzatilishini qayd qilishadi. SHu bilan birga bu toifadagi o'quvchilarda qo'rquv xissi ham paydo bo'ladi. CHunki ular topshiriqlarni yuqori darajada bajarmaganliklari oqibatida yuqori guruhdan quyi guruhga tushib qolishlari ham mumkin.

Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar esa tabaqalashtirilgan guruhlarda o'zlarini kamsitilgan, o'quvi yo'q deb hisoblaydilar. Ko'pincha tengdoshlari, aka-uka, ota-onalari orasida o'zlarini aqli kalta odamlardek his etadilar. Natijada, ular tushkunlikka tushib, o'qishga havaslari qaytadi. Kursdoshlariga qo'shilmay, ular tengdoshlariga aralashmaydigan odamovi bo'lib qoladilar. Bora-ora bu toifadagi o'quvchilarga o'qituvchi, ota-onalar, kursdoshlari tomonidan bildiriladigan turli tanbeh va dashnomlari ularning ruhiyatiga yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada bu hol ularni hamma narsaga, har qanday gaplarga befaprq bo'lib qolishlari va rivojlanishdan to'xtab qolishlariga olib keladi. O'qituvchi tabaqallashtirilgan ta'limni amalga oshirishga kirishar ekan, uning yuqorida qayd qilingan xam ijobiy, ham salbiy jihatlariga to'g'ri yondoshib ish olib borishi kerak bo'ladi.

Masalaning ana shu nozik jihatlarini hisobga olib, o'quvchilarni guruhga ajratganda auditoriyadagi qobiliyati, qobiliyatsiz, o'zlashtiruvchi, o'zlashtirmovchi, yuqori, quyi so'zlarning o'rniga oddiygina qilib birinchi, ikkinchi, uchinchi guruhlar deb qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Tabaqallashtirish o'qitishning samarsi katta ekanligi bilan bir qator uning murakkab

Jihatlarini ham mavjudligini alohida qayd qilish lozim. Uning murakkabligi o'qituvchining uch xil darajadagi dasturlar asosida mashg'ulot olib borishi bilan bog'liq. Buning uchun har bir guruh uchun tasviriy san'atdan alohida darsliklar, metodika, didaktik va tarqatma materiallar, texnika vositalari kerak bo'ladikim, ularsiz mashg'ulotlarni talablar darajasida tashkil etib bo'lmaydi. Bu esa quyidagi yo'nalishlardan ifodalanadi:

1. Tabaqallashtirilgan tasviriy san'at ta'limini ilmiy asoslarini puxta egallagan bo'lishlik.
2. Mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik majmualar bilan qurollangan bo'lishlik.
3. Mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan maxsus xona va moddiy texnikaviy bazaga ega bo'lishlik.

4. O'qituvchi o'z fanidan o'quvchilarni bilim va malakalari saviyasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishligi v.b.

Muammoning qiyin va murakkab jihatlaridan biri bu o'qituvchining o'quvchilar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishligidir. Ma'lumki, har bir shaxs, o'zicha bir dunyo, shu qatori tasviriylar san'atdan bilim malakalari ham bir-biridan farq qiladi. Buning uchun ustiga o'quvchilardagi o'ziga xoslik shunchalik turli-tumanki, ularni aniqlash nihoyatda mushkul.

O'quvchilarni har jihatdan bilish uchun o'qituvchi tomonidan o'quvchilar orasida pedagogik va psixologik tashxis o'tkazishi zarur bo'ladi. Bu ish bivosita quyidagilar bilan bog'liq: o'quvchining umumiy qobiliyati, uning xarakteri, qaysi fanga qiziqishi, tasavvur, tafakkur va ijodiy fikrlash darajasi, faolligi va fantaziyasi, xotira va kuzatuvchanligi, diqqati, tashabbuskorligi, mustaqilligi, uyda mashg'ulotlar uchun bo'lgan shart-sharoitlari v.b. Tashhisda o'quvchilar sog'ligi va fiziologik o'sishini bilish ham foydadan holi emas.

SHuningdek, o'quvchilarni qush va hayvonlarga, kasb-hunarlarga, san'at turlariga, sport qiziqishlarini bilish ham muhim. CHunki, o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ularni ana shunday qiziqishlariga karab ta'lim berishning samarali ekanligi fanimizda anchadan buyon ma'lum.

YUqorida qayd qilingan sifatlar bilan bir qatorda o'qituvchi o'z fanidan o'quvchining tasviriylar san'atga doir xususiyatlarini ham bilishi kerak bo'ladi. Bu borada o'qituvchi dars jarayonida har bir o'quvchining bilim va malakalaridagi o'sishni ham bilib turishi zarur.

O'qituvchini bilim va malakasidagi rivojlanish darajasiga qarab bilim berish yana shuning uchun ham muhimki, bunda zaruriyat tug'ilganda o'quvchilarni u guruhdan bu guruhga o'tkazish imkonini beradi.

Darajali tabaqalashtirib o'qitishning yagona bir ko'rinishi mavjud bo'lib, unda o'quvchilarni fanlar bo'yicha bilim va malakalarining darajasiga qarab emas, balki umumiy tarzda tabaqalashtirishidir. Bunda o'quvchilarni temperamenti asosiy rol o'ynaydi. Bunday sifatlar bo'yicha tabaqalashtirilganda o'quvchilar xoleriklar, sangvinlar, flegmatiklar va melonxoliklar guruhlaridan tashkil topadi.

CHunki, o'qituvchi jarayonida o'quvchilarga topshiriqlar berganda biron narsani talab qilganda, ularni psixologik xususiyatlariga tayanish samarali kechadi. Ishning saviyasi ko'p jihatdan o'quvchilarni ana shu sifatlarini bilib, to'g'ri munosabatda bo'lishlikka bog'liqdir.

O'qituvchi o'quvchilarning diqqati, idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqi, his-tuyg'ulari, xarakteri haqida ham tasavvurga ega bo'lishi talab etiladi.

O'quvchilarning bilim va malakalari, ijodiy qobiliyatlari, qiziqishlari, idroklarini hisobga olib o'tkaziladigan pedagogik tashxis ishlari quyidagi tashkiliy ishlab bilan boliq:

- o'quvchilar bilimlarini aniqlash uchun test materiallarini tayyorlash;
- o'quvchilarning bilim va malakalarini aniqlash uchun anketa savolnomalar tayyorlash;
- o'quvchilarning bilim va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- o'quvchilarning bilim va malakalarini aniqlashga doir didaktik materiallar tayyorlash;

O'quvchilarning bilim va malakalarini tashhis etish bilan masalaning echimi tugamaydi.

Yangi materialni bayon etish va uni o'quvchilar tomonidan to'liq o'zlashtirilishi uchun tegishli metodika zarur bo'ladi. Bu bosqichning muhim jihatlaridan biri tashhisdan o'tgan guruhlarda o'quvchilarning tasviriy san'atdan bilimlar xajmi va darajasini aniqlashdir. Gap shundaki, yangi mavzuni idrok etishga guruhdagi barcha o'quvchilar tayyormi yoki yo'qmi, axir guruhdagi barcha o'quvchilarning bilim va malakalari bir xil emasku?! Bir guruhdagi bir o'quvchi ikkinchisiga qaraganda ozmi, ko'pmi kengroq va chuqurroq bilimga ega. SHunday ekan, guruhdagi barcha o'quvchilarni o'qituvchi yangi materialni idrok etishi va o'zlashtirishi uchun tayyorlash lozim bo'ladi.

Tabaqalashtirish faqat guruhlar bo'yicha emas, har bir o'quvchi bilan ham yakkama-yakka ish olib borishni ham nazarda tutadi. U dars jarayonida, uyga topshiriqlar berganda amalga oshiriladi. SHuningdek, individual ta'lim faqat bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashni emas, bir yo'la iqtidorli, qobiliyatli o'quvchilar bilan ishlashni ham nazarda tutadi.

Maktabda tasviriy san'atdan darajali tabaqalashtirishning ikki yo'nalishi tavsiya tiladi:

1. O'quvchilarning idroki va qobiliyatini hisobga olib tabaqalashtirish. Bu yo'nalishga o'quvchilarni o'qituvchi tavsiya etadi.
2. O'quvchilarni qiziqishiga qarab tabaqalashtirish. Bunda guruhlarini o'quvchilarning o'zlari tanlaydilar.

Oliy o'quv yurtida o'quvchilarning tasviriy san'atga qiziqishi, idroki, qobiliyatlarini hisobga olib, ularni bir necha guruhga bo'lish mumkin:

1. Idroki past, bilim va tushunchalarni sekin va qiyin o'zgartiruvchi o'quvchilar, ularni o'qishga havasi yo'k va qobiliyati qoniqarldi emas, ijodkorlik hislatlari sezilmaydi.
2. O'qishga havasi va qobiliyati o'rtacha, nazariy bilimlarni o'zlashtirishi va ijodkorligi o'rtacha.
3. O'qishga havasi, ijodiy qobiliyati va fantaziyasi kuchli, berilayotgan bilimlarni tez va puxta idrok eta oladilar.

Mana shu xususiyatlar asosida tasviriy san'atdan ta'lim mazmunini tabaqallashtiriladi. Tabaqalashtirilgan ta'lim mazmunini, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, u uch toifaga bo'linadi:

1. Dasturning minimum darajasi. U tasviriy san'at o'quv predmetidan ta'limning davlat standartlarida belgilangan bilimlarni nazarda tutadi. Ta'lim mazmunining bu toifasida o'quvchilarning bilim va malakalari, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish minimum darajada bo'ladi.
2. Dasturning o'rtacha darajasi. Tasviriy san'atdan beriladigan bilimlar va malakalar ta'limning davlat standartlarida ko'rsatilgan minimum darajadan yuqoriroq bo'ladi. O'quvchilarda ijodiy fikrlash va fantaziyani talab etadigan topshiriqlar minimum darajada qoladi.
3. Dasturning yuqori darajasi. Tasviriy san'atdan o'quvchilarning idroki, qobiliyatini hisobga olgan holda ularga keng bilim va chuqur malakalar beradigan, ularning ijodkorligini, iste'dodini ro'yobga chiqaradigan mashg'ulotlardan tashkil topadi.

Ma'lumki, darajali tabaqalashtirishning ikki yo'li mavjud:

1. Bir guruh o'quvchilaridan ikki va undan ortiq guruh tashkil etib o'qitish.
2. Oliy o'quv yurtidagi bir necha parallel guruh o'quvchilaridan quyi, o'rta va yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilar guruhlarini tashkil etib o'qitish.

Ta'limning ikkinchi yo'li o'qituvchiga unchalik katta qiyinchilik tug'dirmasda birinchi yo'li katta mas'uliyat talab etiladi. U ancha murakkab jarayon bo'lib, bunda bir vaqtning o'zida o'qituvchi uch guruh bilan ish olib borishi kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi uch xil ta'lim mazmuni, dastur va darsliklar, turli-tuman didaktik materiallar va turli metodikalardan foydalanadi.

O'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchilarni mustaqil ishlarini to'g'ri amalga oshirishga bog'liq. O'quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajarish ko'nikmalariga ega bo'lganlaridagina bu boradagi ishlar samarali kechadi. Tabaqalashtirib o'qitishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tasviriy san'atdan mustaqil ishlarni quyidagi shakllarini qo'llash maqsadga muvofiqdir:

1. Tarqatma materiallar bilan ishlash.
2. Darslik bilan ishlash.
3. Kompyuter bilan ishlash.
4. Ijodiy ishlarni bajarish.
5. Kitob o'qish.
6. Mashg'ulotlar mavzusiga doir sayyohat qilish.
7. Ota-ona, mutaxassis, do'st-dugonalar bilan suhbat va munozaralar qilish.
8. Topishmoq va krossvordlar echish va boshqalar.

SHuni ham qayd qilish lozimki, tabaqalashtirilgan sinf va guruhlarda har bir guruh uchun tuzilgan ta'lim mazmuniga mos metodika qo'llaniladi. Ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda barcha guruh o'quvchilari bilan mashg'ulotlar, frontal, shuningdek, guruhli yoki individual holda amalga oshirilishi mumkin.

Tabaqalashtirilgan guruhlariga topshiriqlar turli shakl va turli mazmunda ham tavsiya etiladi. Ularning asosiy shakllari:

1. Har bir guruhga tasviriy san'atdan alohida mazmun yoki mavzulardan topshiriqlardan tavsiya etish.
2. Bir necha guruhga bir xil mazmun yoki mavzuda, biroq turli murakkablikda topshiriqlar tavsiya etish. YAgona mavzuda topshiriq berilganda uni uch toifadagi o'quvchilar guruhiga uch xil murakkablikda tavsiya etiladi.
3. Guruhlarning ayrimlarida tasviriy san'atdan nazariy, boshqasida amaliy xarakterdagi mashg'ulotlar olib borish.
4. Ayrim guruhlariga o'quvchilarning to'la mustaqil ishlari uchun topshiriqlari berilsa, boshqalariga o'qituvchining ishtirokida bajariladigan vazifalar tavsiya etiladi.
5. Tabaqalashtirilgan guruhlarining ba'zilarida rang-tasvir, boshqalariga haykaltaroshlik yoki san'atshunoslik asarlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazsa bo'ladi.
6. Ayrim guruhlarda yangi material bayon etilsa boshqasida o'tilganlarini qaytarish ham mumkin.
7. O'qituvchi topshiriqlarni bir necha variantlarda tavsiya etadi, o'quvchilar ulardan o'zlariga ma'quli va kuchlari etadiganlarini tanlab oladilar.
8. Ayrim guruhlar bilan mashg'ulotlarni guruhda boshqalar bilan guruhdan tashqarida amalga oshirish.
9. Zaruriyat tug'ilganda o'quvchilar erkin mavzularda ish bajarishlari ham mumkin.

Tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishda birinchidan, o'quvchilarga tasviriy san'atdan beriladigan bilim va malakalarning dozasi, topshiriqni bajarishga ketadigan vaqt, o'quvchining bu topshiriqni bajarishga bo'lgan layoqatini o'qituvchi tomonidan aniq tasavvur etilishi lozim. Ikkinchidan ta'lim mazmunini tinglovchilar ongiga singdirish uchun metodikani to'g'ri tanlash hamda bu metodikani amalga oshirishga xizmat qiladigan moddiy-texnikaviy asosning yaratish muhimdir.

Buning uchun o'qituvchi avvaldan darsga puxta tayyorgarlik ko'rgan, uni stsenariysini atroflicha va chuqur ishlab chiqqan bo'lishi kerak. SHu bilan birga har bir darsda o'quvchilarning bilim va malakalaridagi o'zgarishlarni bilib turish ham ahamiyatlidir. Tabaqalashtirilgan ta'limda yangshi bilimlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish

uchun avvaldan ularni tayyorlash lozim va bunga o'qituvchi to'la ishonch hosil qilgandan so'ng yangi mavzuni bayoniga o'tishi lozim.

X U L O S A.

Ta'lim maqsadlarini, baxolash mezonlarini xamda ta'lim sharoitlarini takroriy xosil kilishdagi imkoniyatlaridan kelib chikib, ta'lim- tarbiya jarayonini tarbiyaviy omillariga xam " texnologik" jarayonini keng tadbik etish mumkin. Bu jixatdan "pedagogik texnologiya" ta'lim va tarbiya o'rtasidagi farkni kiskartiradi. "Pedagogik texnologiya" ta'lim maqsadlarini aniqlashtirish va kismlash- tirish, ta'lim natijalarini standartlashtirish, ta'lim jarayonidagi samarali teskari aloka, avtomatlashtirish imkoniyatlari kabi muxim ta'lim muammolarini xal kilish imkonini beradi. Ushbu muammoni ishlab chikishda "pedagogik texnologiya" dagi ta'lim tizimlarini ko'rishdagi tajribasini xisobga olish va tankidiy taxlil kilish maqsadga muvofikdir.

"Pedagogik texnologiya" ning rivojlanish istiqbollari uning nazariy asoslarining tankidiy taxlil kilinishi, ta'limga reduksion yondashishdan voz kechish bilan belgilanadi. Bir vaktning o'zida "Pedagogik texnologiya" nazariy asoslarini o'zgartirish bilan birgalikda uning "muammo maydoni" ni xam o'zgartirish lozim.

Ta'lim jarayonining "texnologik" kurulishi kator muammolarni keltirib chikaradi. Ular sirasiga, birinchi navbatda, didaktik maqsadlarini ishlab chikish, ularni muvofik ravishda tarkib

toptirish, mos ravishdagi ta'lim jarayonini loyixalashtirishda uning shakl va mazmuni muvofikligini taminlash, o'quvchilar tomonidan tajribaning tulakonli o'zlashtirilishi, barcha ta'lim oluvchilar saviyasini tenglashtirish va oshirish kabilarni kiritish mumkin.

Bulgusi mutaxassislarini sifat jixatidan zamon talabi darajasida tayyorlashga avvalo ularga aniq bilimlar berish, kasbiy kunikma va malakalarni shakllantirish, ularni kelgusi faoliyatlarida unumli kullashga urgatish orkali erishish mumkin. SHunday ekan, o'quv-tarbiya jarayonini ta'lim nazariyasi faoliyati nuqtai nazaridan kurib chikib, barcha ta'lim-tarbiya ishlarini "pedagogik texnologiya" yunalishiga utkazish, maktab amaliyotidagi ixtiyoriylik bilan uning xar bir elementini jiddiy asoslash lozim bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya va uni tasviriy san'at ta'lim jarayonida qo'llash haqida qo'limdan kelganich to'xtalib o'tdim.

XXI-asr axborot texnologiyalari asri. Ta'lim tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda axborot texnologiyalarini ham joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

So'zim ohirida siz aziz ustozlarga o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Sizlardan olgan bilimlarimni mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod tarbiyasiga sarflashga va'da beraman.

O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATI STRUKTURASI

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

Gumanistik aksiologiya – insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir sifatida qaraydi.

Akmeologik yondashuv – o'qituvchining kasbiy mahorai cho'qqilariga erishuvida uning shaxsi riojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi. Akmeologiya (akme) – yunoncha nuqta, o'tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

Kreativ yondashuv. Kreativlik termini Angliya-Amerika psixologiyasida, 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratish va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati.

Refleksiya (lotincha Reflxio – ortga qaytish) – sub'ektning o'z(ichki) psixik tuyg'u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi. Refleksiya o'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilashi va tahlil qila olishi deb qaraladi.


O'QITUVCHINING INNOVATSION BOSQICHLARI

Bininchi bosqichda – tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib ko'chirilali;

Ikkinchi bosqichda – mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikauiyalar), metodik usullar kiritiladi;

Uchinchi bosqichda - g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi;

To'rtinchi bosqichda – o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror kontsentsiyasi va metodikasi yaratiladi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: SHarq, 1997.
2. Turg'unboyev K., Rizayev A. «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar». Andijon 2008.
3. Abdirasilov S., Tolipov N. «Rangtasvir». T., 2005.
Ishmuxammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish. T. 2004 yG'
4. Saidaxmedov N. Pedagogik texnologiya. T. 2002
5. Qo'ziev T., Egamov A., Qanoatov T., Nurqobilov A., «Rangtasvir». 5-9 sinflar «San'at». T., 2003.
6. Nabiev M. «Rangshunoslik». T.: O'qituvchi, 1996.
7. Nabiev M., Azimova B. «Rasm chizishga o'rgatish metodikasi». T.: O'qituvchi, 1976.
8. Egamov H. Bo'yoqlar bilan ishlash. T.: O'qituvchi, 1981.
9. Egamov H. «Rangtasvir». T.: O'qituvchi, 2005.
10. Xasanov R. «Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi». T: «FAN», 2004.
11. Xasanov R. «Tasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasi» Fan dasturi. TDPU – 2007.
12. Oydinov N. Rassom - o'qituvchilar tayyorlash muammolari. T.: O'qituvchi, 1997.
13. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. (1 - jild). T. "O'qituvchi" 1995
14. Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T. "O'qituvchi" 2004

Mundarija

Kirish.....	3-4
1-bob. O'qitishning zamonaviy texnologiyalarini o'rganish zaruriyati.....	5-11
1.1. O'qitishga an'anaviy yondashishning afzalliklari va kamchiliklari.....	12-17
1.2. O'zbekistonda yangi pedagogik texnologiya kontseptsiyasini rivojlantirish istiqbollari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	18-52

2-bob. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atdan o'quv jarayonini texnologiyalashtirish.....	53-61
2.1. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini muammoli vaziyatlar hosil qilib o'qitish.....	61-67
2.2. Tasviriy san'at darslarida tabaqalashtirib o'qitish yo'llari.....	67-77
Xulosa.....	78-79
Ilovalar.....	80-83
Foydalanilgan adabiyotlar.....	84-85